



I M V
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI

**O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish:
2023 yildagi vaziyat**

IHTT yashil o'sish ko'rsatkichlari asosida taraqqiyot monitoringi

Asosiy hisobot
2023 yil sentyabr

MUQADDIMA

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan ishlab chiqilgan Yashil o'sish ko'rsatkichlari (YAO'K) tizimidan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha erishilgan yutuqlar bo'yicha ushbu birinchi monitoring hisobotini taqdim etishdan mammunman.

2022-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "yashil o'sish" Strategik bazaviy dasturini va 2030-yilga borib "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha Harakatlar rejasini tasdiqladi. Harakatlar rejasni Iqtisodiyot va moliya vazirligi taraqqiyotni kuzatib boradigan sakkizta milliy YAO'K va maqsadli ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu hisobot quyidagi to'rtta asosiy savolga javob berishga yordam beradi:

1. O'zbekistonning tabiiy resurslar va ekologik xizmatlardan foydalanish samaradorligi oshmoqdami?
2. O'zbekiston iqtisodiyotining tabiiy bazasi qo'llab-quvvatlanadimi?
3. "yashil" Iqtisodiyotga o'tish O'zbekistonda odamlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradimi?
4. Ekologik o'sish O'zbekistonda qay tarzda iqtisodiy imkoniyatlarni yaratmoqda?

Ushbu hisobotdagagi natijalar yashil o'sish yo'nalishidagi bir nechta ijobjiy tendensiyalarni ochib beradi:

- Uglerod chiqindilari, energiya, materiallar va suv bo'yicha samaradorlik oshib bormoqda, bu esa chiqindilarni kamaytirishga va iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda energiya va resurslardan yanada samarali foydalanishga olib keladi.
- O'rmonlar va qo'riqlanadigan tabiiy hududlarning ulushi ortib bormoqda, shu bilan birga, umumiy yer maydonida qishloq xo'jaligi yerlarining ulushi kamaymoqda.

Erishilgan yutuqlarga qaramay, quyidagi bir qator muammolar saqlanib qolmoqda:

- Qayta tiklanmaydigan qazilma yoqilg'ilari ulushi 2021-yilda energiya ta'minoti tuzilmasining 99% tashkil etgan.
- Suv stressi darajasi yuqori va o'sishda davom etmoqda.
- Hosil bo'lgan qattiq chiqindilarning faqat to'rtadan bir qismi qayta ishlanadi.
- Havoning ifloslanish darajasi dunyoda eng yuqori ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston hukumati ekologik toza iqtisodiyotga sodiqligini ta'kidlamoqda. Men Germaniya Atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish va yadro xavfsizligi federal vazirligining ushbu loyihani moliyaviy qo'llab-quvvatlagani uchun o'z minnatdorligimni e'tirof etaman. Texnik ko'mak ko'rsatgani uchun IHTT va Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetiga minnatdorchilik bildiraman.



Janob Ilhom Norkulov,
Iqtisodiyot va moliya Vazirning birinchi o'rindbosari,
Toshkent, O'zbekiston

TARIX VA MINNATDORLIK

DASTLABKI MA'LUMOT

Ushbu hisobot Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan ishlab chiqilib, xalqaro miqyosda tan olingen "yashil o'sish" ko'rsatkichlari (YAO'K) tizimidan foydalangan holda O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish sohasidagi taraqqiyotini baholashga qaratilgan birinchi urinishdir. 1990-2022 yillardagi YAO'K tizimi tendensiyalarini (yoki mavjud bo'lgan so'nggi ma'lumotlarni) taqdim etgan holda, hisobot O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlarining rivojlanishini namoyish etadigan statistik tendensiyalar va qimmatli tahvilij ma'lumotlarni taqdim etadi. Shuningdek, u O'zbekistondagi tendensiyalarни boshqa mamlakatlardagi tendensiyalar yoki mintaqadagi o'rtacha ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Bundan tashqari, hisobotda 2030 yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirishni monitoring qilish uchun qabul qilingan milliy ko'rsatkichlardagi tendensiyalari yoritilgan.

E'TIROF

Monitoring hisoboti Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti (TXVU), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (IMV) va Statistika agentligining "yashil" iqtisodiyot yo'lida ishonchli monitoring tizimini yaratish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasidir. Hisobot IHTTning Germaniya Atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish va yadro xavfsizligi federal vazirligining moliyaviy ko'magi bilan uning Xalqaro iqlim tashabbusi (XIT) doirasida Sharqiy sheriklik va Markaziy Osiyo mamlakatlarda ekologiya-iqlim bilan bog'liq investisiyalarni rag'batlantirish mexanizmlari va salohiyatini takomillashtirish loyihasi doirasida ishlab chiqilgan. Loyihaga Izabella Noyveg (IHTT) rahbarlik qilgan. TXVU uchun ushbu ish 2021-yilda boshlangan IHTT loyihasining davomi bo'lib, u "yashil" iqtisodiyotga yanada ko'proq hissa qo'shish uchun yo'l ochgan O'zbekistonning COVID-19 dan keyin "yashil" tiklanish bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Monitoring hisoboti TXVU ekspertlari guruhi tomonidan Baxrom Mirkasimov (rektor) va Etenesh B. Asfa (Siyosiy tadqiqotlar va targ'ibot ishlari markazining katta ilmiy xodimi) rahbarligida tayyorlangan. Tadqiqot guruhiga Etenesh Asfa, Nargiza Alimuxamedova, Omonjon G'aniyev, Zohid Asqarov, Axtem Useinov, Angelo Battalya, Kamilla Sultanova va Abdulaziz Dusbabayev kirdilar. Ishni Izabella Noyveg, Irina Belkaxiya va Kshishtof Mixalak (IHTTning atrof-muhit bo'yicha barcha direktorlari) boshqardilar.

TXVU jamoasi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga taqdim etgan ma'lumotlari, milliy statistik ma'lumotlari va qo'shgan hissalarini uchun minnatdorchilik bildiradi. Mualliflar turli milliy manfaatdor tomonlarning, jumladan, Makroiqtisodiy va mintaqaviy tadqiqotlar instituti deb nomlangan sobiq Prognozlash va makroiqtisodiy islohotlar instituti va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (MoYeYePCC) deb nomlangan sobiq Tabiiy resurslar vazirligiga qo'shgan hissalarini uchun minnatdorchilik bildiradi. Hisobot 2023-yil 16-fevralda bo'lib o'tgan loyihani ishga tushirish tadbiri va 2023-yil 12-iyuldagagi ekspertlar ishchi yig'ilishi davomidagi muhokamalar natijasida tayyorlangan. Hisobot mahalliy tilga tarjima qilingan va TXVU, IMV va IHTT veb-saytlarida mavjud. Mualliflar tarjimonlar, muharrirlar va tahrirchilarning qimmatli hissalarini e'tirof etadi.

HISOBOT TUZILISHI

Hisobot ikki qismdan iborat.

Birinchi qism IHTTning YAO'K tizimi asosida O'zbekistonning "yashil" o'sishini kuzatib boradi, ikkinchi (maxsus) qism esa sakkizta milliy ko'rsatkichdan foydalangan holda 2030 yilga qadar "yashil" iqtisodiyotga o'tish milliy strategiyasining amalga oshirilishini kuzatib boradi. U oltita bobdan iborat:

- 1-bobda IHTT YAO'Klarining uslubiyoti va tuzilishi tavsiflangan.
- 2-bobda O'zbekiston iqtisodiy o'sishining ijtimoiy-iqtisodiy konteksti va xususiyatlari keltirilgan.
- 3-bobda O'zbekiston iqtisodiy faoliyatida energiya, boshqa tabiiy resurslar, materiallar va ekologik xizmatlardan foydalanish samaradorligi ko'rib chiqiladi.
- 4-bobda O'zbekistonning tabiiy zaxiralari saqlanib qoladimi yoki yo'qmi degan savol ko'rib chiqiladi.
- 5-bobda hayot sifatining ekologik jihatlari tahlil qilingan hamda ekologik shart-sharoitlar va xavf-xatarlarning O'zbekiston aholisi farovonligiga qanday ta'sir qilishi ko'rsatilgan.
- 6-bobda O'zbekistonning "yashil" o'sishining iqtisodiy imkoniyatlari va siyosatning javob choralar ko'rib chiqiladi.

Hisobotda ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlarning o'lchanishi va talqini bo'yicha ta'riflar va texnik sharhlar har bir bobning oxirida keltirilgan.

Ikkinci qism, 7-bob, 2030 yilga kelib O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategik asoslarini monitoring qilishga bag'ishlangan. U "yashil o'sish" strategiyasi, dasturi va harakatlar rejasini amalga oshirishni monitoring qilish uchun hukumat tomonidan tasdiqlangan sakkizta ko'rsatkichga e'tibor qaratadi. Bobda, shuningdek, 2022 yil uchun "yashil o'sish" strategiyasini amalga oshirishdagi yutuqlarni baholash uchun milliy ko'rsatkichlardan foydalilanadi.

MUAMMOLAR VA OLG'A SILJISH YO'LLARI

Tadqiqot O'zbekiston va boshqa mamlakatlar bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bilan to'ldirilgan milliy statistikaga asoslangan. Tahliliy ishlar milliy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi, ma'lumotlar turli muassasalarda taqsimlanganligi va ba'zi ko'rsatkichlarning ta'riflari va o'Ichovlarida nomuvofiqlik bilan bog'liq cheklowlarga duch keldi. Muammolarning tafsilotlari tegishli boblarda keltirilgan.

Kelajakda YAO'K tizimi monitoringi uchun hukumat quyidagi choralarни ko'rishi lozim bo'ladi:

- Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va boshqa manfaatdor tomonlar YAO'K atamalarini, xalqaro miqyosda taqqoslanadigan o'lchanish standartlarini va monitoring ko'rsatkichlari uchun ma'lumotlarga bo'lgan talablarni ta'riflash/talqin qilish salohoyatlarini kuchaytirishi lozim.
- Statistika agentligi yoki Iqtisodiyot va moliya vazirligidagi muvofiqlashtiruvchi organ - ko'rsatkichlarni kuzatish uchun turli manbalar muntazam ravishda ma'lumotlarni taqdim etadigan mexanizmni yaratishi lozim.
- Statistika agentligi ma'lumotlar bazasida YAO'Klarga bag'ishlangan axborot makonini yaratishi va unga 1991 yildan keyingi davrga oid tarixiy ma'lumotlarni uch tilda (ingliz, rus va o'zbek) joylashtirishi lozim. Ma'lumotlar ommaga erkin foydalanish imkoniyati bilan yoki xarajatlarni qoplash asosida taqdim etilishi mumkin.
- Statistika agentligi va ma'lumotlar yig'iladigan boshqa tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik qilish, YAO'K tizimini muntazam ravishda boshqarish, tekshirish, monitoring va tahlil qilish va hisobot berish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligida monitoring va baholash bo'yicha

mutaxassis tayinlash. Bu vazirlikka ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, tizimlashtirish va ulardan foya olishda katta yutuqlarga erishishga yordam beradi.

- Turli manbalar (masalan, Ekologiya vazirligi; Suv resurslari vazirligi, Kadastr agentligi; Energetika va O'rmon xo'jaligi vazirligi) dan YAO'K bilan bog'liq ma'lumotlarni yig'ish uchun raqamli platformaning markazi bo'lib xizmat qiluvchi Iqtisodiyot va moliya vazirligining mahalliy rasmiy veb-portalini kengaytirish. Portal Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ma'lumotlardan strategik foydalanishda yordam beradi.

MAS'ULIYATNI CHEKLASH BAYONOTI

Ushbu hisobotda bildirilgan fikrlar faqat mualliflarga tegishli. Ular hech qanday tarzda IHTT, uning a'zolari, hukumatlari, donorlari yoki ijrochi sheriklarining rasmiy fikrlarini aks ettira olmaydi.

Ushbu hisobot va unga kiritilgan har qanday xarita biron bir hudud maqomiga yoki uning suverenitetga, xalqaro chegaralarning delimitatsiyasiga va har qanday mintqa, shahar yoki hudud nomiga zarar yetkazmaydi.

Hisobot Germaniya Atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish va yadro xavfsizligi federal vazirligining moliyaviy ko'magi bilan uning Xalqaro iqlim tashabbusi doirasida tayyorlangan.

Ushbu hisobot matnidan manbara tegishli havola taqdim etish sharti bilan foydalanishga ruxsat beriladi.

Ushbu hujjatni sotish taqiqlanadi.

Iltimos, ushbu hisobotga "Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti (2023). O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish: 2023-yildagi vaziyat. IHTT "yashil o'sish" ko'rsatkichlari asosida taraqqiyot monitoringi. TXVU, Toshkent", deb havola keltiring.

AKRONIMLAR VA QISQARTMALAR

FTA	Fransiya taraqqiyot agentligi	IMV	Iqtisodiyot va moliya vazirligi
HSQ	Havo sifati bo'yicha qo'llanma	TRV	Tabiiy resurslar vazirligi
CO₂	Karbonat angidrid	EAMMQIO'	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi
°C	Selsiy darajasi	QMCH	Qattiq maishiy chiqindilar
Iste'mol narxlari indeksi	Iste'mol narxlari indeksi	m³	Kub metr
MO	Markaziy Osiyo	mkg	Mikrogramm
STITM	Siyosiy tadqiqotlar va targ'ibot markazi	megavatt	Megavatt
RSH	Rivojlanish bo'yicha sherik	IHTT	Iqtisodiy - hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti
IMI	Ichki materiallar iste'moli	BDR	Bizning dunyomiz ma'lumotlarda
YeTTB	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	QZ	Qattiq zarralar
ShYeKMO	Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo	QTEM	Qayta tiklanadigan energiya manbalari
FAO	Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti	SA	Statistika agentligi
YalM	Yalpi ichki mahsulot	BRM	Barqaror rivojlanish maqsadlari
YAO'	"yashil o'sish"	QCHB	Qattiq chiqindilarni boshqarish
YAO'K	"yashil o'sish" ko'rsatkichlari	TPES	Birlamchi energiyaning umumiyl taklifi
GYAO'I	Global "yashil o'sish" instituti	toye	Neft ekvivalenti tonnasi
YAO'SA	"Yashil o'sish"ning strategik asoslari	t	tonna
IGCh	Issiqxona gazlari chiqindilari	BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
ga	Gektar	BMTTD	Birlashgan Millatlar tashkilotining Taraqqiyot dasturi
XEA	Xalqaro energetika agentligi (IEA)	AQSH	AQSH dollari
XMI	Xalqaro moliya instituti (IFI)		
MMTI	Makroiqtisodiy va mintaqaviy tadqiqotlar instituti		
IRENA	Xalqaro qayta tiklanadigan energiya agentligi		
XMT	Xalqaro mehnat tashkiloti		
XVF	Xalqaro valyuta fondi		
kg	Kilogramm		
km²	Kvadrat kilometr		
kVt	Kilovatt-soat		

MUNDARIJA

MUQADDIMA	1
TARIX VA MINNATDORLIK	2
AKRONIMLAR VA QISQARTMALAR	5
ASOSIY XULOSALAR	9
1-bob: IHTTning "yashil" o'sish ko'rsatkichlari va mamlakat konteksti	15
2-bob: Ijtimoiy-iqtisodiy kontekst	23
3-bob: Iqtisodiyotning ekologik va resurslar samaradorligi	34
4-bob: Tabiiy zaxiralarning asoslari	46
5-bob: Hayot sifatining ekologik jihatni	56
6-bob: Iqtisodiy imkoniyatlar va siyosiy choralar	65
7-bob: O'zbekistonning 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyot strategiyasi monitoringi	77

JADVALLAR RO'YXATI

1.1-jadval. IHTT "yashil o'sish" ko'rsatkichlari va O'zbekistonga nisbatan qo'llaniladigan ko'rsatkichlar	
1.2-jadval. Ko'rsatkichlarning qiyosiy jadvali	
2.1-jadval Ijtimoiy-iqtisodiy kontekstning o'chovi, talqin qilinishi va ma'lumotlar manbai	31
3.1-jadval CO ₂ , energiya va moddiy samaradorlik uchun o'chov, talqin va ma'lumotlar manbai	43
4.1-jadval Tabiiy resurslarga asoslangan o'chov, talqin va ma'lumotlar manbalari	53
5.1-jadval Ichimlik suvi va kanalizatsiya xizmatlaridan foydalanish (uy xo'jaliklari ulushi), 2021 yil, hududlar bo'yicha	61
5.2-jadval Hayot sifati ko'rsatkichlari ekologik o'chovi bo'yicha YAO'K tizimi uchun o'chovlilik, talqin va ma'lumotlar manbai	63
6.1-jadval Toshkent shahrida sovuq suvgaga o'rtacha yillik tarif, so'mda	71
6.2-jadval Iqtisodiy imkoniyatlar va siyosiy javob choralarini to'g'risidagi ma'lumotlarning o'chovliligi, talqini va manbai	73
7.1-jadval 2030 yilgacha O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar	78
7.2-jadval Milliy "yashil" iqtisodiyotning strategik ustuvor yo'naliishlari, ko'rsatkichlari va o'chovliligi	79

DIAGRAMMALAR RO'YXATI

2.1-diagramma. Yalpi ichki mahsulot (YalM)	17
2.2-diagramma. Aholi jon boshiga real YalM	21
2.3-diagramma. Aholi jon boshiga YalM, mintaqaviy	21
2.4-diagramma. Qo'shilgan qiymat hajmi bo'yicha asosiy tarmoqlarning ulushi	24
2.5-diagramma. Real YAlMning o'sish sur'ati	24
2.6-diagramma. YAlM o'sishi, mintaqaviy	Error! Bookmark not defined.
2.7-diagramma. Iste'mol narxlari indeksi (INI)	24
2.8-diagramma. Tashqi savdo	25
2.9-diagramma. Eksport tarkibi	25

2.10-diagramma. Import tarkibi	Error! Bookmark not defined.
2.11-diagramma. Kam daromadli aholining ulushi	Error! Bookmark not defined.
2.12-diagramma. Tengsizlik (Jini koyeffitsiyenti)	Error! Bookmark not defined.
2.13-diagramma. Iqtisodiy faol aholi va bandlik	27
2.14-diagramma. Tarmoqlar bo'yicha bandlik	27
2.15-diagramma. Maktab ta'limi qamrovining umumiy ko'rsatkichi	27
2.16-diagramma. Oliy o'quv yurtlarida talabalar soni jinsi bo'yicha	27
2.17-diagramma. Aholining umumiy soni	28
2.18-diagramma. Aholining yoshi bo'yicha tarkibi, 2022 yil	28
2.19-diagramma. Kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi	28
2.20-diagramma. Sof tashqi migratsiya	28
3.1-diagramma. Ishlab chiqarish bilan bog'liq CO ₂ chiqindilari	29
3.2-diagramma. CO ₂ emissiyasi samaradorligi	29
3.3-diagramma. Umumiy birlamchi energiya ta'minoti (UBET)	36
3.4-diagramma. Qayta tiklanadigan energiya ta'minotining ulushi	36
3.5-diagramma. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi	
3.6-diagramma. Energiya samaradorligi	36
3.7-diagramma. Tarmoqlar bo'yicha energiya iste'molining ulushi	37
3.8-diagramma. YAIMning energiya sig'imi	37
3.9-diagramma. Moddiy mahsuldarlik	41
3.10-diagramma. O'g'ilardan foydalanish	41
3.11-diagramma. Hosil bo'lgan qattiq maishiy chiqindilar	41
3.12-diagramma. Suv unumdonligi	41
4.1-diagramma. O'rmon hududi	47
4.2-diagramma. O'rmon fondi	47
4.3-diagramma. Chuchuk suv yetishmasligi va stress	47
4.4-diagramma. Tarmoqlar bo'yicha chuchuk suvdan foydalanish	47
4.5-diagramma. Yer uchastkasining maydoni	48
4.6-diagramma. Qishloq xo'jaligi yerlari	48
4.7-diagramma. Ekin maydonlari	49
4.8-diagramma. Tabiy gaz ishlab chiqarish va iste'mol qilish	49
4.9-diagramma. Muhofaza etiladigan tabiy hududlar	51
4.10-diagramma. Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlar	51
4.11-diagramma. O'rtacha yillik harorat	51
5.1-diagramma. Havoning ifloslanishi	Error! Bookmark not defined.
5.2-diagramma. QZ ning o'rtacha yillik konsentratsiyasi va QZ _{2.5} ning aholiga ta'siri	Error! Bookmark not defined.
5.3-diagramma. Nafas olish kasalligi natijasida o'lim	58
5.4-diagramma. QZ _{2.5} ta'siri natijasida o'lim va ijtimoiy ta'minot xarajatlari	58
5.5-diagramma. Ozon gazi(O ₃) ta'siridan o'lim holatlari va ijtimoiy xarajatlar (O3)	58
5.6-diagramma. Qo'rg'oshin gazining ta'siridan o'lim holatlari va ijtimoiy xarajatlar	58
5.7-diagramma. Xavfsiz ichimlik suvi va kanalizatsiya xizmatlaridan foydalanish	60
5.8-diagramma. Sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan aholi	60
6.1-diagramma. Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq innovatsiyalar ulushi va aholi jon boshiga ulushi	66
6.2-diagramma. Atrof-muhitni muhofaza qilishga davlat xarajatlari	67
6.3-diagramma. BRM-13 (iqlim o'zgarishiga qarshi kurash) doirasida davlat xarajatlari	67
6.4-diagramma. XMI va YAO'SA maqsadli yo'nalishlar bo'yicha qarz mablag'lari ulushi, 2023 yil	68
6.5-diagramma. Rivojlanish bo'yicha sheriklar tomonidan (66 mln AQSH dollaridan %) va YAO'SA maqsadli yo'nalishlar bo'yicha grant mablag'lari ulushi, 2023 yil	68
6.6-diagramma. Ekologik soliqlar va yig'ilmardan tushumlar	70
6.7-diagramma. Energiya subsidiyalari	70
6.8-diagramma. Elektr energiya narxi	70
6.9-diagramma. Dizel va benzin yoqilg'isi narxi	70
7.1-diagramma. YAIMning energiya sarfini kamaytirish	83
7.2-diagramma. Sanoat tarmogi' tomonidan energiya sarfini kamaytirish	83

7.3-diagramma. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulush	84
7.4-diagramma. Quyosh fotoelektr stansiyalari quvvatlarini qurish	84
7.5-diagramma. Aholining ichimlik suvidan foydalanish imkoniyati	84
7.6-diagramma. O'rmon daraxtlari va butalar zaxirasini ko'paytirish	85
7.7-diagramma. Shaharlardagi yashil maydonlarning ulushi	85
7.8-diagramma. Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash	85

ASOSIY XULOSALAR

O'zbekiston tabiiy zaxiralar va ekologik xizmatlardan foydalanishda tobora samarali bo'lib bormoqda, ammo tabiiy kapitalga nisbatan bosim saqlanib qolmoqda.

- O'zbekiston iqtisodiyoti tabiiy zaxiralardan foydalanishda tobora samarali bo'limoqda. So'nggi 30 yil ichida uglerod chiqindilari, energiya, materiallar va suv bo'yicha samaradorlik oshgan. Biroq, ular markaziy Osiyo (MO) va Sharqiylar Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo (ShYeKMO) mintaqasidagi o'rtacha ko'rsatkichlardan ancha past bo'lib qolmoqda. Umidbaxsh taraqqiyotga qaramay, tabiiy zaxiralardan foydalanish hajmi yuqori bo'lib, tabiiy kapitalga nisbatan bosimni keltirib chiqarmoqda.
- O'zbekistonda issiqxonalar (IG) chiqindilarining umumiy hajmi Markaziy Osiyoda Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda, yalpi ichki mahsulot (YAIM) birligiga to'g'ri keladigan chiqindilar bo'yicha esa dunyoda beshinchchi o'rinda turadi. Shu bilan birga, so'nggi 20 yil ichida u yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan uglerod chiqindilarini taxminan 75% ga kamaytirishga muvaffaq bo'ldi. Shu tariqa tendensiyani umidbaxsh deb baholash mumkin.
- So'nggi yillarda YAIMning energiya sig'imi pasaymoqda, ammo dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda. 2022-yilda O'zbekiston energiya ehtiyoji bo'yicha dunyodagi sakkizinchchi mamlakat bo'ldi. Energiya iste'molining taxminan 45% binolar (turar-joy va tijorat binolari)ga, 21% sanoatga, 18% esa transportga to'g'ri keladi.
- Shamol va quyosh energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalari O'zbekiston energiya balansida ahamiyasiz o'rinni tutadi (2 % dan kam) va ularning ulushi Markaziy Osiyo o'rtacha ko'rsatkichidan ancha (15%) past. Qayta tiklanadigan energiya manbarining (QTEM) elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi 2022 yilda 9% gacha oshdi. QTEMning 90 % dan ortig'i gidroyenergetikadir. Qayta tiklanadigan energetikaning rivojlanishi quyosh energiyasining yuqori salohiyatiga qaramay sekin sur'atlarda davom etmoqda.
- So'nggi 30 yil ichida iqtisodiyotdagi suv samaradorligi to'rt baravar oshdi va ishlataligan suvning har bir kubometri (m^3) uchun 2 AQSH dollarini tashkil etdi. Ushbu yutuqlarga qaramay, samaradorlik Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha o'rtacha 43 AQSH dollarini/ m^3 va dunyo bo'yicha o'rtacha 21 AQSH dollari/ m^3 bilan solishtirganda eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda.
- So'nggi 30 yil ichida iqtisodiyotdagi moddiy mahsuldarlik (ma'lum miqdordagi metall, nometall va biomassadan foydalanish natijasida olingan mahsulot hajmi) ikki baravar ko'paydi. Bu MO bo'yicha uchinchi o'rindagi qiyomat.
- 2021 yilda O'zbekistonda besh yil oldingiga nisbatan o'n baravar ko'p qattiq chiqindilar hosil bo'limoqda. 2021 yilda taxminan 6 mln tonna, yoki aholi jon boshiga 165 kg qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'lgan. Chiqindilarning hosil bo'lishi o'sib borayotgan bo'lsa-da, hozirgi daraja dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichning atigi yarmini tashkil qiladi. Biroq, 2018 yilda aholining faqat yarmi chiqindilarni muntazam yig'ish xizmatlari bilan qamrab olingan. Chiqindilarni qayta ishlash hajmi ortib borayotgan bo'lsa-da, 2021-yilda ularning faqat to'rtadan bir qismi qayta ishlangan.
- O'zbekistonda har gektar (ga) ekin maydonlarida ishlataligan mineral o'g'itlar miqdori ko'paygan, bu bir gektar ekin maydoniga to'g'ri kelgan ortiqcha o'g'itlashning o'sishiga olib keldi. So'nggi 30 yil ichida bu ko'rsatkich 50 % dan ko'proq oshdi va 2020 yilda dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan 75% yuqori bo'ldi.

O'zbekiston iqtisodiyotining tabiiy zaxiralari bazasi qo'shimcha qo'llab-quvvatlanishga muhtoj

- Noto'g'ri sug'orish, yaylovlar va go'ngdan oqilona foydalanmaslik natijasida yerlarning yaroqsiz holga kelishi O'zbekistonda asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Yer maydonlari asosan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan. Yer maydonining haydaladigan, doimiy ekinlar va doimiy yaylovlar ostida bo'lgan qismi deb ta'riflangan qishloq xo'jaligi yerkari umumiy maydonning deyarli 60% ni tashkil qiladi. Hisob-

kitoblarga ko'ra, yerlarning yaroqsiz holga kelishi bilan bog'liq yo'qotishlar yillik YAIMning taxminan 5% ga teng. Yo'qotishlar qishloq xo'jaligi mahsuldarligining pasayishi, tuproq yemirilishining kuchayishi, suvdan foydalanish imkoniyatining kamayishi, uglerod yig'ilishining va ekotizim xizmatlarining yo'qotilishini o'z ichiga oladi.

- Organik dehqonchilik hajmi 2010 yildan beri o'sib bormoqda, ammo qishloq xo'jaligi yerlarining atigi 0,004% ni tashkil etadi.
- O'zbekiston dunyodagi eng yirik suv tanqisligi kuzatilayotgan davlatlardan biridir. Suv tanqisligi darajasi yoki ishlatilgan suvning mavjud suvga nisbati so'nggi 20 yil ichida taxminan 50 % dan deyarli 70% gacha sezilarli darajada oshdi. Qishloq xo'jaligi tarmog'i olingen chuchuk suvning 90 % dan ortig'ini sarflaydi. Jiddiy stressga qaramay, qishloq xo'jaligi suvning 40% eskirgan sug'orish infratuzilmasi tufayli yo'qotiladi. O'zbekiston suv stressini yumshatish uchun yanada samarali sug'orish tizimlariga, suv zaxiralarni boshqarish va svuni tejashning takomillashtirilgan usullariga sarmoya kiritmoqda.
- O'rmonlar maydoni va daraxt zaxiralari ko'paymoqda. O'rmonlar umumiylar yer maydonining taxminan 8% ni tashkil qiladi, bu 2014 yilga nisbatan 30 % dan ziyodga ko'proqdir.
- O'zbekistonda 40 dan ortiq muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mavjud. Ular so'nggi o'n yil ichida 300 % dan ko'proq oshib, umumiylar yer maydonining 8% ni tashkil qilmoqda. Xuddi shu davrda, qo'riqlanadigan hududlarning kengayishiga qaramay, yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan hayvonlar va o'simliklarning deyarli 20 turi Milliy Qizil Kitobga kiritilgan. Xavfning oshishiga iqlim o'zgarishi, yaylovlardan xo'jasizlarcha foydalanish, betartib ov va brakonyerlik kabi omillar sabab bo'lgan.
- Tabiiy zaxiralalar hajmiga kelsak, O'zbekiston tabiiy gaz qazib olish bo'yicha 11-o'rinni va uning zaxiralari bo'yicha dunyoda 14-o'rinni egallaydi. 2021-yilda ishlab chiqarish hajmi 54 mlrd m³ ga yetganligi sababli qazib olish va gaz iste'moli o'rtasidagi tafovut kamaydi. Tabiiy gaz zaxiralari 20-30 yilga yetishi taxmin qilinmoqda. Tabiiy gaz iste'molidagi yo'qotishlar eskirgan infratuzilma tufayli katta muammo bo'lib qolmoqda.

Aholi hayot sifatining ba'zi ko'rsatkichlari yaxshilanmoqda, shu bilan birga muammolar saqlanib qolmoqda.

- O'zbekiston havo ifloslanishi bo'yicha dunyoda 20-chi o'rinni egallaydi. Ifloslantiruvchi moddalarning asosiy manbalari chang zarralari, transport vositalarining chiqindilari va sanoat chiqindilari. So'nggi o'n yil ichida havodagi zarrachalar konsentratsiyasi (QZ_{2,5}) Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) sog'liq uchun zararli deb hisoblagan 35 mkg/m³ dan oshib ketdi.
- So'nggi o'n yil ichida sog'liq uchun zararli QZ_{2,5} konsentratsiyasi ta'siri ostida bo'lgan aholining ulushi taxminan 80 % dan 56% gacha kamaydi. Shunga qaramay, aholining zararlanish darajasi dunyo bo'yicha o'rtacha 10 % dan besh baravar yuqoridir.
- Havoning ifloslanishi tufayli o'lim va ijtimoiy ta'minot xarajatlari ortib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, har yili tashqi havoning ifloslanishi ta'sirida bir mln aholiga 750 dan ortiq odam muddatidan oldin vafot etadi, bu 2019 yilda dunyodagi o'rtacha 645 kishiga teng bo'lgan ko'rsatkichdan yuqoridir. Tashqi havoning ifloslanishi bilan bog'liq o'lim holatlari bo'yicha mamlakat dunyoda uchinchiligi o'rinda turadi. Bu bilan bog'liq ijtimoiy ta'minot xarajatlari YAIMning deyarli 9%ni ShYeKMO mintaqasidagi esa bu ko'rsatkich 6,5% ni tashkil etadi.
- So'nggi o'n yil ichida xavfsiz maishiy ichimlik suvi ta'minotidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklarining ulushi 10% ga qisqarib, taxminan 70% ni tashkil etgan. Bunga suv infratuzilmasining eskirishi, aholi sonining ko'payishi va uy-joy qurilishi kabi omillar sabab bo'lgan va natijada suv ta'minotiga bo'lgan talab ortgan. Bundan tashqari, shaharlar va qishloqlar o'rtasida ichimlik suvidan foydalanishda katta farq mavjud. Toshkent shahridagi uylarning 97 % dan ortig'i ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, qishloq joylarda bu hamon muammoligicha qolmoqda.

- O'zbekiston ijtimoiy kanalizatsiya tizimlarini kengaytirishda ma'lum yutuqlarga erishdi. Shunga qaramay, 2022 yilda kanalizatsiya tizimiga uy xo'jaliklarining yarmidan kamroq'i (48%) ulangan va hududlar o'tasida farq mavjud. Masalan, Toshkent shahridagi barcha turar-joy binolari kanalizatsiya tizimiga ulangan bo'lsa, Qoraqalpog'iston mintaqasida bu ko'rsatkich uy xo'jaliklarining atigi 16% ni tashkil etadi.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda ko'proq iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish kerak

- So'nggi besh yil ichida tabiatni muhofaza qilish texnologiyalariga sarmoyalar kiritish bo'yicha ma'lumotlar yo'q. Biroq, avvalgi tendensiya shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston 1990-yillarning boshidan beri ekologik texnologiyalarga sarmoya kiritgan. 2018 yilda O'zbekistondagi innovatsiyalarning 15 % dan ortig'i atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan, bu dunyo bo'yicha o'ttacha 10% ga teng ko'rsatkichdan yuqoridir.
- Atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari o'sish tendensiyasini namoyish qilmoqda, ammo hali ham pastligicha qolmoqda. So'nggi o'n yil ichida o'ttacha hisobda ular davlat xarajatlarining atigi 0,06% ni yoki YAIMning 0,02% ni tashkil etdi. O'zbekiston byudjetida "yashil" xarajatlarning tizimli belgilanmasligi barcha "yashil" investisiyalarni baholashni qiyinlashtirgani sababli, ushbu qiymat pastroq baholanishi mumkin.
- Davlat byudjetiga ekologik soliq tushumlarining ulushi 2015-18 yillarda o'ttacha 0,01 % darajasida o'zgarishsiz qoldi. Qattiq maishiy chiqindilarni yig'ish uchun to'lovlar ekologik soliq tushumlarining 57 % ni tashkil qiladi. Atrof-muhit bilan bog'liq barcha soliqlarning tizimli hisobi bo'lmasa-da, umuman olganda atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun yig'imlardan, shu jumladan qattiq chiqindilar va oqava suvlarni yig'ish uchun yig'imlardan olinadigan ekologik tushumlar oshdi. 2018 yilda (ma'lumotlar mavjud bo'lgan oxirgi yil) ular 2010 yilga nisbatan deyarli to'rt baravar yuqori bo'lib, taxminan 1,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi (1 AQSH dollari = 8 069 so'm).
- Energiya subsidiyalari asta-sekin kamayib bormoqda, ammo hamon yuqori darajada qolmoqda. 2020-yilda qazib olinadigan yoqilg'i uchun subsidiyalar 2010-yilga nisbatan 60% ga past bo'lgan, biroq YAIMning 6,6% ga teng bo'lib, qariyb 4 mlrd AQSH dollarini (1 AQSH dollari = 10 065 so'm) tashkil etgan.
- Energiya manbalaridan foydalanish tariflari mahsulot tannarxini aks ettirmaydi. Biroq, kam daromadli aholini himoya qilishga qaratilgan siyosat energiya narxlarining keskin islohotlariga qarshi turadi. Shunga ko'ra, elektr energiyasi tariflari ko'tarildi, ammo 2019 yildan boshlab iste'molchilarning turli toifalari uchun turli xil tarif sxemalari o'rnatildi. Shu tariqa, tadbirdorlik sub'yektlari bo'lgan iste'molchilar uchun tarif maishiy iste'molchilariga qaraganda 30-50% yuqori edi. Xuddi shunday, SUV tariflari ko'tarilganiga qaramay, SUV harajatlari hali ham subsidiyalanadi va tariflar yetkazib berish xarajatlarini qoplamaydi. Hududlarda SUV narxi Toshkent shahriga nisbatan yuqori. Tariflar mintaqaga, iste'molchining yashash joyi turiga va SUV hisoblagichlarining mavjudligiga qarab o'zgaradi.

O'zbekistonning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari istiqbolli

- So'nggi o'n yil ichida iqtisodiyot yiliiga taxminan 6% ga o'sdi. So'nggi uch yil ichida inflyatsiya o'ttacha 11% ni tashkil etganiga qaramay, O'zbekistonning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsuloti 2022-yilda taxminan 2009 AQSH dollarini tashkil etdi (2022-yilda 1 AQSH dollari = 11 000 so'm)¹, ya'ni o'n yil ichida yetti baravar o'sdi.
- O'zbekistonda savdo-sotiqning ochiqligi oshdi va 2016 yilga kelib mamlakat tovarlar va xizmatlarning sof importchisiga aylandi. Importning umumiyligi 2021-yilda 25,5 mlrd AQSH dollariga oshdi, eksport qiymati esa 16,7 mlrd AQSH dollarini (1 AQSH dollari = 10 623 so'm) tashkil etdi.
- Salbiy sof tashqi migratsiyaga qaramay, aholi soni har yili 1,6% ga o'sib bormoqda. 2022 yilda aholining soni 35 mlndan oshdi, uning 54% 30 yoshdan kichik bo'lganlardir. 2021-yilda jami ishchi kuchida ish bilan

¹ Hisobotda O'zbekiston tijorat bankining valyuta kurslariga asoslangan o'ttacha yillik valyuta kurslaridan foydalilanildi: <https://cbu.uz/en/arkhiv-kursov-valyut/>

band bo'lganlarning ulushi taxminan 70% gacha oshdi. Asosiy ish beruvchilar bu xizmat ko'rsatish sohasi (51%), undan keyin sanoat (25%) va qishloq xo'jaligidir (24%).

- 2021 yilda boshlang'ich va o'rta ta'lismuassasalariga qabul qilishning umumiyo ko'rsatkichi 100% bo'lishi bilan bir qatorda oliv o'quv yurtlariga qabul qilish ta'lim olish huquqiga ega bo'lgan o'quvchilar sonining atigi beshdan bir qismini tashkil etdi.

O'zbekiston 2022-yilda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish dasturi va harakatlar rejasida belgilangan ba'zi strategik maqsadlarga erishishda muvaffaqiyat qozondi.

- O'zbekiston energiya sarfini 5% ga kamaytirish bo'yicha 2022 yilga belgilangan maqsaddan oshib ketdi: energiya iste'moli 2021 yilga nisbatan 10 % dan ko'proqqa kamaydi.
- U, shuningdek, elektr energiyasi ishlab chiqarishning umumiyo hajmidagi QTEM 8%-li ulushi bo'yicha 2022 yilgi maqsadni 0,8% ga oshirib bajardi. 10 megavatt quvvatga ega yangi quyosh batareyasini qurish bo'yicha belgilangan reja besh barobar ortig'i bilan bajarildi.
- Bu toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan uy xo'jaliklari ulushini taxminan 70% ga oshirish maqsadiga erishish imkonini yaratdi. Yuqorida ta'kidlanganidek, aholi soni o'smoqda va infratuzilma ortib borayotgan talabni qiyinchiliklar bilan qondirmoqda. Ushbu sharoitda toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan uy xo'jaliklarining ulushi o'n yil avvalgiga qaraganda pastroqdir. O'zbekiston talab ortib borayotganini aks ettirish uchun ushbu maqsadni yanada yuksaltirishi mumkin.

**I-QISM: IHTT TOMONIDAN ISHLAB CHIQILGAN "YASHIL" O'SISH
KO'RSATKICHLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA O'ZBEKİSTONDA "YASHIL
IQTISODIYOT"NI MONITORİNG QILISH**

·1-bob: IHTTning "yashil" o'sish ko'rsatkichlari va mamlakat konteksti

Ushbu bobda IHTTga a'zo davlatlarda "yashil" iqtisodiyot yo'llidagi taraqqiyotni kuzatish uchun ishlab chiqilgan IHTT "yashil" o'sish ko'rsatkichlari (YAO'K) tizimi va uning O'zbekistonda sinov tarzda qo'llanilishi bayon etilgan. Unda mavjud ma'lumotlar asosida hisobotga qaysi IHTT YAO'K kiritilganligi tavsiflangan. Shuningdek, bobda mamlakatdagi "yashil" o'sish uchun mavjud vaziyat va "yashil" iqtisodiyotga o'tish monitoringi bilan bog'liq milliy jarayonlar haqida umumiylar ma'lumot berilgan. Shunday qilib, bu IHTT YAO'K tizimi milliy monitoring jarayonlarini qanday to'ldirishini ko'rsatadi.

1.1 IHTTning "yashil" o'sish ko'rsatkichlari tizimiga kirish

IHTT "yashil o'sish"ni "iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ko'maklashish, shu bilan birga tabiiy boyliklar bizning farovonligimiz bilan bog'liq bo'lgan resurslar va ekologik xizmatlarning taqdim etilishi davom etishini ta'minlash" deb ta'riflaydi. Ushbu ikki vazifa - atrof-muhitga nisbatan bosimni bartaraf etish bilan birga iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish zarurati birlashadigan nuqtadir. U, shuningdek, ularni birgalikda amalga oshirish uchun imkoniyatlardan foydalanish masalasini ko'taradi (IHTT, 2017).

2011 yilda IHTT o'z a'zo mamlakatlarida "yashil o'sish" strategiyasini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun "yashil o'sish" monitoring tizimini ishlab chiqdi. Shundan buyon u IHTT a'zolari orasida va undan tashqarida, shu jumladan Markaziy Osiyo (MO) (Qirg'iziston va Qozog'iston)da keng qo'llanilmoqda. Yondashuv moslashuvchan bo'lib, uni milliy kontekstga moslashtirishga imkon beradi.

"Yashil" iqtisodiyot yo'lidagi taraqqiyotni kuzatishning afzalliklari

"Yashil" iqtisodiyot siyosati taraqqiyotni kuzatish uchun tegishli ko'rsatkichlar bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak. IHTT "yashil o'sish" ko'rsatkichlari (YAO'K) tizimi mamlakatlarga quyidagilarda yordam beradi:

- ekologik jihatdan iqtisodiy o'sishdagи taraqqiyotni kuzatib borish va ma'lumot berish
- asoslantirilgan qarorlar qabul qilish
- milliy va xalqaro manfaatdor tomonlarga hisobdorlikni namoyish etish
- iqtisodiy o'sish va atrof-muhit o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida jamoatchilik xabardorligini oshirish
- taraqqiyotni boshqa mamlakatlar bilan taqqoslash.

YAO'Klar tuzilishi "yashil o'sish"ning to'rt jihat bo'yicha guruholangan 26 ta asosiy ko'rsatkichni o'z ichiga oladi:

1. iqtisodiyotning ekologik va zaxiralarni tejash jihatdan samaradorligi
2. tabiiy zaxiralar bazasi
3. hayot sifatining ekologik jihat
4. iqtisodiy imkoniyatlar va siyosiy javob choralar.

YAO'K tuzilmasi, shuningdek, "yashil o'sish"ning to'rt jihatiga qo'shimcha ravishda mamlakatning joriy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyati haqida ma'lumot yig'adi.

1.1-jadvalda IHTT YAO'K ro'yxati, shu jumladan ularning ushbu hisobotda qayd etilganlari keltirilgan. Kiritilgan ko'rsatkichlar asosan 2023 yil iyun holatiga ko'ra Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti (TXVU) ixtiyoridagi milliy manbalardan olingan ma'lumotlarga, shuningdek, 2023 yil iyul oyiga qadar olingan milliy ekspertlarning sharhlariga asoslanadi. Milliy ma'lumotlar Iqtisodiyot va moliya vazirligi (IMV), Statistika agentligi (SA) va Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (EAMMQIO'V) tomonidan taqdim etilgan. Milliy ma'lumotlar xalqaro manbalar, shu jumladan Xalqaro energetika agentligi (XEA), IHTT va Jahon bankining ma'lumotlar bazalari bilan to'ldiriladi. Mazkur hisobotda O'zbekiston uchun taklif etilayotgan YAO'K to'liq va yakuniy emas. Shu tufayli, ma'lumotlar kelib tushishi va "yashil o'sish" tushunchasi rivojlanishi bilan ularni kengaytirish mumkin.

Error! No text of specified style in document..1-jadval IHTT "yashil o'sish" ko'rsatkichlari va O'zbekistonga nisbatan qo'llaniladigan ko'rsatkichlar

"Yashil o'sish" guruhi	Kichik guruh	IHTT ko'rsatkichlari	Tahlilga kiritilgan	Ma'lumotlar manbai	Hisobotda yoritilgan yillar
Ekologik va zaxiralarni tejovchi mahsuldarlik	Uglerod va energiya samaradorligi	Ishlab chiqarishga asoslangan CO ₂ chiqindilari samaradorligi	Ha	IHTT, O'zgidromet	1990-20
		Talabga asoslangan CO ₂ chiqindilari samaradorligi	Yo'q		
		Energiya samaradorligi	Ha	Statistika agentligi (SA)	2018-21
		YAIMning energiya sig'imi	Ha	SA	2000-22
		Umumiyligi energiya va elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi	Ha	IHTT	1990-2020
	Zaxiralarning samaradorligi	Ishlab chiqarishga asoslangan moddiy mahsuldarlik	Ha	IHTT	1992-2019
		Materiallarning talabga asoslangan samaradorligi	Yo'q		
		Qattiq chiqindilar hosil bo'lishining jadalligi va ularni qayta ishlash koyeffitsiyenti	Ha	SA	2015-21
		Qishloq xo'jaligiga yo'naltirgan ozuqa moddalari (azot, fosfor)ning hajmi va nisbati	Ha	Jahon banki	1992-2020
		Suv unumdarligi	Ha	IHTT	1994-2019
	Ko'p omilli samaradorlik	Atrof-muhit omillarini hisobga olgan holda ko'p faktorli samaradorlik	Yo'q		
Tabiiy zaxiralar bazasi	Tabiiy boylik zaxiralar	Tabiiy boyliklar indeksi	Yo'q		
	Qayta tiklanadigan zaxiralar	Chuchuk suv zaxiralar	Ha	Jahon banki	1994-2019
		O'rmon zaxiralar	Ha	SA	2014-20
		Baliq zaxiralar	Yo'q		
	Qayta tiklanmaydigan zaxiralar	Mineral zaxiralar	Ha	SA	2000-21
		Yer zaxiralar	Ha	MO/FAO	1991-2021
		Tuproq zaxiralar	Yo'q		
Hayot sifatining ekologik jihatida	Atrof-muhit salomatligi va xatarlari	Yovvoyi tabiat zaxiralar	Ha	O'zbekistonning Qizil kitobi	2019
		Qo'riqlanadigan hudud	Ha	SA	2011-21
		Havoning ifloslanishi tufayli sog'lig'i xavf ostida bo'lgan aholi	Ha	IHTT	2010-19
		Atrof-muhit ta'siridan kelib chiqadigan sog'liq muammolari va ular bilan bog'liq xarajatlar	Ha	IHTT SA	2010-19
		Ekologik xavf-xatarlarga va ular oqibatidagi sog'liq bilan bog'liq va iqtisodiy yo'qotishlarga moyillik	Ha	IHTT	2010-19

	Ekologik xizmatlar va quayliklar	Kanalizatsiya tizimlariga ulangan aholining ulushi	Ha	SA	2010-22	
		Xavfsiz ichimlik suvidan barqaror foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan aholining ulushi	Ha	SA	2010-22	
Iqtisodiy imkoniyatlar va siyosiy choralar	Texnologiya innovatsiyalar va	"Yashil o'sish" bo'yicha tadqiqot va ishlamalar xarajatlari	Ha	Ekologiya vazirligi; Iqtisodiyot va moliya vazirligi (BRM13)	2012-19	
		"Yashil o'sish" uchun muhim bo'lgan patentlar	Yo'q		2019-22	
		Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq yangiliklar	Ha	IHTT	1993-2018	
	Ekologik mahsulotlar va xizmatlar	Ekologik mahsulotlar va xizmatlarni (ETX) ishlab chiqarish	Yo'q			
		Xalqaro moliyaviy oqimlar	"Yashil o'sish"ni ta'minlash uchun xalqaro moliyaviy oqimlar	Ha	Toshkentdag'i BMTTD	2023
		Narxlar va o'tkazmalar	Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq soliq va subsidiyalar	Ha	Ekologiya vazirligi; XEA	2015-18
	Ta'lif, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish	Energiya manbalariga narx shakllanishi	Ha	IHTT	2010-22	
		Suv narxini belgilash va xarajatlarni qoplash	Ha	O'zbekistonning oltin sahifalari	2012-21	
		IHTT hali bironta ko'rsatkichni o'rnatmagan	Yo'q		2019-22	
Ijtimoiy-iqtisodiy kontekst va o'sish xususiyatlari	Iqtisodiy o'sish, mahsuldarlik va raqobatbardoshlik	Iqtisodiy o'sish va tuzilish	Ha	SA	2011-22	
		Hosildorlik va savdo	Ha	SA	2000-21	
		Inflyatsiya va mahsulot narxlari	Ha	SA	2000-22	
		Ishchi kuchi ishtiroki va ishsizlik	Ha	SA	2010-21	
	Mehnat bozori ijtimoiy-demografik tuzilmalar	Aholining o'sishi va tuzilishi	Ha	SA	1991-21	
		Kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi	Ha	SA	2000-21	
		Jini tengsizlik indeksi, N	Ha	SA	2005-20	
		Ta'lif darajasi: ta'lif darajasi va ta'lif olish imkoniyati	Ha	SA	2005-21	

Manba: IHTT materiallari asosida moslashtirilgan, 2017 (135-137 betlar).

1.2 "Yashil iqtisodiyot" bilan bog'liq mamlakat konteksti va milliy jarayonlar

O'zbekiston 2019-yilda 0,37% ulush bilan issiqxona gazlari (IG) chiqarilishi bo'yicha dunyoda 42-o'rinni egallagan; bu Markazi Osiyoda Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinn; IG chiqindilarining Yalpi ichki mahsulot birligiga (YAIM) to'g'ri kelgan hajmi bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinda turadi [2]. 2019-yilda hukumat iqtisodiy o'sishni atrof-muhitning yaroqsizlanishidan ajratish bo'yicha mamlakatning strategik qarashlarini shakllantirish orqali 2030-yilga borib "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini qabul qildi [3]. "Yashil" strategiya quyidagi oltita asosiy ustuvor yo'nalishni hamda uchta tarmoqlararo ustuvor yo'nalishlarni belgilab beradi:

1. tabiiy zaxiralardan samarali foydalanishni ta'minlash
1. iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga chidamlilagini oshirish
2. milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning "yashil" va kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash
3. innovatsiyalarni joriy etish va samarali "yashil" investisiyalarni jalb qilish
4. barqaror va inklyuziv "yashil" urbanizatsiyani rivojlantirish
5. "yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida ko'proq zarar ko'rgan aholi va ularning yashash joylarini qo'llab-quvvatlash
7. "yashil" o'sish bo'yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish
8. "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish (institutlar, ma'lumotlar yig'ish va monitoring)
9. "yashil" moliyalashtirish oqimlarini ko'paytirish

2020 yilda COVID-19 pandemiyasi keltirib chiqargan ustuvor yo'nalishlar e'tibor va zaxiralarni "yashil" chora-tadbirlaridan shoshilinch ravishda ijtimoiy-iqtisodi javob chora-tadbirlariga o'tkazish tufayli "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasining amalga oshirilishini xavf ostiga qo'ydi. Shu tarzda, hukumatning COVID-19 ga qarshi choralar bevosita ekologik jihatlarni o'z ichiga olmagan va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish masalalariga qaratilmagan edi (Amirova va boshq., 2021). "Yashil" iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish (masalan, energiya subsidiyalarini qisqartirish va shu tariqa elektr energiyasi tariflarini oshirish) va kuchli ijtimoiy siyosatni, shu jumladan kam ta'minlangan aholi uchun energiya tariflarini past darajada ushlab turish o'tasidagi murosa ham O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotiga o'tish islohotlariga to'sqinlik qilmoqda. Yana bir muammo - bu yuqori darajadagi o'tish xarajatlari, bular jumlasiga barqaror va qayta tiklanadigan texnologiyalarga investisiyalar ham kiradi (Mirkasimov va boshq., 2023).

Milliy ekologik ustuvor yo'nalishlar O'zbekistonning jiddiy xalqaro majburiyatlariga mos keladi. 2018 yilda hukumat toza suvdan foydalanish, barqaror iste'mol, iqlim o'zgarishiga moslashish va uning ta'sirlarini yumshatish, shuningdek, yer va o'rmonlarni saqlash bo'yicha ekologik ko'rsatkichlar bo'yicha majburiyatlarini (6, 12, 13, 15-BRM) o'z ichiga olgan 2030 yilgacha bo'lgan rejani qabul qildi. 2021-yilda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasining 26-yig'ilishida (COR26) O'zbekiston Respublikasi tomonidan Parij bitimi doirasida 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligidagi issiqxona gazlari chiqarilishini 2010-yilgi ko'rsatkichga nisbatan 35% kamaytirish bo'yicha qo'shimcha majburiyatlari o'z zimmasiga olishi haqida bayonot berildi [4]. 2022-yilda mamlakat 2030-yilga qadar metan tashlanmalarini 2020-yilga nisbatan kamida 30% ga kamaytirish bo'yicha mamlakatlarning jamoaviy maqsadga erishishi bo'yicha global majburiyat to'g'risidagi tashabbusga qo'shildi [4].

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni barpo etish bo'yicha milliy maqsadlarni amalga oshirish va xalqaro majburiyatlarni bajarish ko'rsatkichlarni lozim darajada monitoring qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan bir nechta milliy jarayonlarni eslatib o'tish mumkin. Eng muhim jarayon bu 2018-yilda qabul qilingan va 2022-yilda tuzatishlar kiritilgan 16 ta milliy barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va 125 ta ko'rsatkichni monitoring qilishdir [5].

Milliy BRMlar atrof-muhit ko'rsatkichlari va sayyorani himoya qilish; toza suvdan foydalanishni ta'minlash; barqaror iste'mol; iqlim o'zgarishiga moslashish va uni yumshatish; va yer va o'rmonlarni saqlab qolish (6,12,13,15-BRM) maqsadlarini o'z ichiga oladi. BRM monitoringi SA zimmasiga yuklatilgan bo'lib, u boshlang'ich nuqta sifatida olingan 2016 yildan buyon uni amalga oshirish bo'yicha yillik hisobotlarni e'lon qiladi [6]. Bundan tashqari, 2011 yildan beri SA muntazam ravishda boshqa rasmiy manbalardan ma'lumotlarni yig'adi. Shuningdek, u atrof-muhit, ekologiya va energiyaning alohida ko'rsatkichlari bo'yicha ochiq ma'lumotlarni e'lon qilmoqda. Bularga qo'riqlanadigan hududlar, ishlab chiqarilgan ifoslantiruvchi moddalar hajmi, o'rmon maydoni, aholining ichimlik suvidan foydalanishi va oqava suvlarning tozalanishi, energiya ta'minoti va qayta tiklanadigan energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi kiradi [7].

"Yashil o'tish" ning asosini tashkil etuvchi yana bir milliy jarayon - bu sakkizta ko'rsatkichdan iborat "yashil o'sish" monitoring tizimi (1.2-jadval). Ushbu tuzilma 2022-yil 3-dekabrda Prezidentning "O'zbekistonning 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (keyingi o'rnlarda "yashil o'sish"ning milliy strategik asosi" yoki YAO'SA deb yuritiladi) doirasida kuchga kirdi.

YAO'SA dasturi va harakatlar rejasid issiqxona gazlari chiqindilarini inventarizatsiya qilish uchun zamonaviy monitoring, hisobot va tasdiqlash (MHT) tizimini yaratishni nazarda tutadi. Energetika vazirligi YAO'SAni 2024– yil 1-yanvardan boshlab EAMMQIO'V - O'zgidromet markazi bilan hamkorlikda amalga oshiradi. YAO'SA milliy ko'rsatkichlari va monitoring jarayonlari hisobotning 7-bobida batafsilroq muhokama qilinadi.

BRM milliy ko'rsatkichlari, YAO'SA dasturi va harakatlar rejasining 2030 yilgacha sakkizta ko'rsatkichi va IHTTning YAO'K tizimi bir-biriga qisman mos keladi. Har bir monitoring tadbiri qo'shilgan qiymatini imkon qadar oshirish uchun ushbu uchta monitoring oqimi bir-birini takrorlash o'rniga bir-birini to'ldirishini ta'minlash juda muhimdir. 1.2-jadvalda uchta monitoring oqimi tomonidan qo'llaniladigan ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

2-jadval. Ko'rsatkichlarning qiyosiy jadvali

IHTTga asoslangan "yashil o'sish" ko'rsatkichlari	Milliy BRMlari	2030 yilga kelib "yashil" iqtisodiyotga o'tishni monitoring qilish bo'yicha milliy ko'rsatkichlar
Iqtisodiyotning ekologik va zaxiralarni tejash jihatidan samaradorligi		
<ul style="list-style-type: none"> Ishlab chiqarish asosida CO₂ chiqindilari bo'yicha samaradorlik Energiya samaradorligi tarmoqlar bo'yicha energiyaga ehtiyoj (sig'im) Qayta tiklanadigan energiya (va elektr energiyasi) ulushi Ishlab chiqarishga asoslangan moddiy mahsuldarlik Qattiq chiqindilar hosil bo'lishining jadalligi va ularni qayta ishlash koyeffitsiyenti Qishloq xo'jaligida ozuqa moddalarining oqimi va nisbati (N, P) Suv unumdarligi 	<ul style="list-style-type: none"> 7-BRM: Toza energiya 11-BRM: Barqaror shaharlar va jamoalar 13-BRM: Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash choralar 	<ul style="list-style-type: none"> YAIM birligiga energiya jadalligi quyosh elektr stansiylaridan olinadigan energiya ulushi qayta tiklanadigan energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi sanoatda energiya iste'moli qattiq chiqindilarni qayta ishlash
Tabiiy zaxiralar bazasi		
<ul style="list-style-type: none"> Chuchuk suv resurslari O'rmon resurslari Yer resurslari Yovvoyi tabiat resurslari va qo'riqlanadigan hudud 	<ul style="list-style-type: none"> 6-BRM: Toza suv 15-BRM: Yer ustidagi ekotizim 	<ul style="list-style-type: none"> shahar yashil (o'rmon) zonalari o'rmon yerlarida daraxtlar va butalar zaxiralari
Hayot sifatining ekologik jihatni		
<ul style="list-style-type: none"> Atrof-muhit ta'siridan kelib chiqadigan sog'iqliq muammolarini va ular bilan bog'liq xarajatlar Tabiiy yoki sanoat xatarlari va ular bilan bog'liq iqtisodiy yo'qotishlarning ta'siri Oqava suvlarni tozalashga ulangan aholi Xavfsiz ichimlik suvidan barqaror foydalananish imkoniyati ega bo'lgan aholi 	<ul style="list-style-type: none"> 3-BRM: Salomatlik 6-BRM: Toza suv va sanitariya 	<ul style="list-style-type: none"> aholining yaxshilangan ichimlik suvidan foydalananish imkoniyati
Iqtisodiy imkoniyatlar va siyosiy choralar		
<ul style="list-style-type: none"> "Yashil o'sish" bo'yicha tadqiqot va ishlanmalar xarajatlari Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq yangiliklar "Yashil" o'sish sharoitida xalqaro moliyaviy oqimlar 	<ul style="list-style-type: none"> 9-BRM: Innovatsiyalar va infratuzilma 13-BRM: Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash choralar 	Ko'rsatkich yo'q
Qayta tiklanadigan energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarishdagi ulushi: qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, shu jumladan gidroenergetika, quyosh energiyasi, shamol, biomassa va geotermal manbalardan olinadigan elektr energiyasining ulushi.

Energiya samaradorligi: ishlab chiqarish jarayonida UBET birligiga to'g'ri keladigan daromad (YAIMda).

Tarmoqlar bo'yicha energiya iste'moli: umumiy energiya hajmida tarmoqlar (qishloq xo'jaligi xizmatlari, transport, sanoat) tomonidan ishlatiladigan ulushi.

Energiya jadalligi: birlamchi energiya iste'molining YAIMga doimiy AQSH dollarida o'lchanadigan nisbati. Energiya jadalligi mamlakatning ma'lum miqdordagi iqtisodiy foyda olish uchun energiyadan qanchalik samarali foydalanishini aniqlash uchun YaIM birligiga sarflanadigan energiya miqdorini o'chaydi.

MII: iqtisodiyotda ishlatiladigan biomassa materiallari, nometall va metall moddiy resurslar (og'irligi bo'yicha) miqdorining yig'indisi (ya'ni mamlakatda qazib olingan yoki yig'ilgan materiallarga materiallar va mahsulotlar importi qo'shilgan va materiallar va mahsulotlar eksporti ayrilgan holda (IHTT 2017). U iqtisodiyotda ishlatiladigan material miqdorini o'chaydi.

MII samaradorligi: iqtisodiyotda material birligidan foydalanish natijasida hosil bo'lgan ishlab chiqarish hajmi.

Qattiq maishiy chiqindilar: uy xo'jaliklarida hosil bo'lgan va mahalliy ijroiya organlar tomonidan yig'iladigan chiqindilar.

Qattiq chiqindilarni qayta ishlash: ishlab chiqarish jarayonida materialni chiqindilar tasnifidan chiqaradigan har qanday qayta ishlash.

O'g'itlardan foydalanish: ekin maydonlari birligiga sarflanadigan o'simlik ozuqalari miqdori. O'g'it mahsulotlari azot, kaliy va fosforli o'g'itlarni o'z ichiga oladi.

Suv unumdarligi: olingen chuchuk suv birligiga qancha mahsulot pul ko'rinishida ishlab chiqarilishini o'chaydi.

O'chovlilik va izohlash bo'yicha texnik sharhlar

3.1-jadvalda ushbu bobga kiritilgan ko'rsatkichlar bo'yicha o'chov birliklari, o'chovliligi, izohi, manbalari va ma'lumotlar yillari bo'yicha sharhlar keltirilgan.

3.1-jadval. CO₂, energiya va moddiy samradorlik uchun o'chov, izoh va ma'lumotlar manbai

Ko'rsatkichlar	O'chov birligi, o'lchanish va izoh	Ma'lumotlar manbai va qamrab olingen yillar
Ishlab chiqarishga asoslangan chiqindilari CO ₂	Iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayoni natijasida chiqarilgan uglerod tonnada.	IHTT 1990-2020 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH .
Ishlab chiqarishga asoslangan chiqindilari samaradorligi CO ₂	CO ₂ chiqindilari AQSH dolları/kg. Ko'rsatkich O'zbekistonning ishlab chiqarish natijasida uglerod chiqindilari kamaytirishda qanday harakat qilayotgani haqida umumiy ma'lumot beradi va kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish tendensiyalarini aks ettiradi. Mualliflar ushbu ko'rsatkich bo'yicha milliy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmadi; hisobotda IHTT ma'lumotlar to'plamidan foydalanilgan. O'zgidromet uglerod chiqindilari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'adi.	IHTT 1990-2020 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH

Birlamchi energiyaning umumiy taklifi	Mamlakatga yetkazib beriladigan energiya miqdori tonna neft ekvivalentida (tne).	SA 2018-21 https://stat.uz/en/official-statistics/industry .
UBET da TEM ulushi	Qayta tiklanadigan energiya manbalarining yetkazib beriladigan birlamchi energiyasining umumiy hajmidagi ulushi (tonnada), mln. Ko'rsatkich O'zbekistonda yuetkazib beriladigan/iste'mol qilinadigan energiyaning umumiy hajmidagi kam uglerodli qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini o'lchashga yordam beradi.	IHTT 1990-2020 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH
Elektr energiyasini ishlab chiqarishda QTEM ulushi	Qayta tiklanadigan manbalarning umumiyligi elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi. Bu O'zbekistonning kam uglerodli elektr tizimiga o'tayotganligini ko'rsatishga yordam beradi.	SA 1913-2022 yillar https://stat.uz/en/official-statistics/industry .
Energiya samaradorligi	Energiya iste'moli birligiga YAIM (2015 yil uchun AQSH dollarida). Ko'rsatkich birlamchi energiya birligidan foydalanishning iqtisodiy foydasini o'lchaydi. Bu O'zbekiston energiya samaradorligini oshiradimi yoki iste'mol qilinadigan energiya birligiga ko'proq mahsulot ishlab chiqaradimi, degan savolni yoritadi.	IHTT 1990-2020 https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH .
Tarmoqlar bo'yicha energiya sarfi	Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari tomonidan iste'mol qilinadigan UBETning ulushi. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha umumiyligi energiya iste'molining tendensiyalarini ko'rsatadi va qaysi tarmoq energiya ta'minotining katta qismini ishlatishtini aniqlaydi.	IHTT 1990-2020 https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH .
YAIMning energiya sig'imi	YAIM birligiga sarflanadigan energiyaning umumiyligi miqdori. Bu energiya samaradorligiga teskari qiymat bo'lib, energiyadan samarali foydalanish darajasini ko'rsatadi.	SA 2020-22 yillar https://stat.uz/en/official-statistics/industry .
Moddiy mahsuldorlik	MII birligiga Yalm. Ko'rsatkich iqtisodiyotda MII (biomassa, metall va nometall materiallar) birligiga qancha daromad ishlab chiqarilishini o'lchaydi. O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlar umumlashtirilmaydi.	IHTT 1992-2019 https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH .
Hosil bo'lgan qattiq maishiy chiqindilar	Bir yil ichida uy xo'jaliklarida hosil bo'ladigan qattiq chiqindilarning umumiyligi miqdori. SA BRM monitoringi doirasida 2016 yildan beri ishlab chiqarilgan va qayta ishlangan MCH bo'yicha bunday ma'lumotlarni to'plashni boshladi.	SA 2015-21 BRM (stat.uz)
Qayta ishlangan qattiq chiqindilar ulushi	Hosil bo'lgan qattiq chiqindilar hajmida qayta ishlangan chiqindilar foizi.	SA 2015-21 BRM (stat.uz)
Qishloq xo'jaligida ozuqa moddalari oqimi (N, P)	Bir gektar qishloq xo'jaligi yerlariga qo'llaniladigan o'g'itlar miqdori (kg/ga). Ushbu YAO'K fermer xo'jaliklarida qo'llaniladigan ikkita asosiy o'g'it – azot (N) va fosfor (P) uchun qishloq xo'jaligidagi ozuqa moddalaringin nisbatini o'lchaydi. Biroq, ushbu qiymatni hisoblash uchun ma'lumotlari yo'qligi sababli O'zbekiston uchun yillik ozuqa balansi xaritasini tuzish imkoniyati yo'q. Ushbu hisobotda O'zbekistonda o'g'itlardan foydalanishning jahon o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan umumiyligi ko'rsatkichlari navbatma-navbat ko'rsatilgan [9]. Shuningdek, u "ortiqcha azot" – atrof-muhitdagisi azotning yo'qolishini ko'rsatadi.	Jahon banki (o'g'it o'mini bosuvchi vositalardan foydalanish) 1992-2020 https://data.worldbank.org/indicator/AG.CON.FERT.PT.ZS . yillar

Suv unumdarligi	Olingen suvning bir kub metriga YALMDa qo'shilgan qiymat (2015 AQSH dollari). Bu mamlakat suv resurslaridan qanchalik samarali foydalanayotganligini ko'rsatadi.	Jahon banki 1994-2019 yillar https://data.worldbank.org/indicator/ER.GDP.FWTL.M3.KD?locations=UZ .
-----------------	--	--

Izoh:

- [1] Parij bitimi bo'yicha milliy majburiyatlarni ko'ring: Gidrometeorologiya xizmati markazi (2021), Yangilangan milliy hissa, Toshkent, O'zbekiston, Milliy hissalar reyestri | BMT IO'K va ikki yillik davr mobaynida O'zbekiston Respublikasining birinchi yangilangan hisoboti: BMT IO'K doirasida, 2021. Toshkent Qarang <https://unfccc.int/sites/default/files/resource/FBURUZeng.pdf> .
- [2] YAO'Klardagi taqqoslashlarga qarang: https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH .
- [3] Energiya ma'lumotlariga qarang: <https://stat.uz/en/official-statistics/industry> .
- [4] Global energiya jadalligidagi tendensiyalarga qarang: <https://yearbook.enerdata.net/total-energy/world-energy/intensivligi-gdp-malumotlar.html> .
- [5] BRM yutuqlari to'g'risidagi hisobotga qarang: <https://nsdg.stat.uz/en/goal/15> va ekologiya vazirligining 2019 yil 12 iyuldagи hisoboti.
- [6] SA BRM hisobotlaridan ishlab chiqarilgan va qayta ishlanadigan qattiq maishiy chiqindilar to'g'risidagi ma'lumotlarga qarang: BRM (stat.uz)
- [7] Qarang: O'zbekiston hukumati (2019), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori, <https://lex.uz/docs/4291733?quyery=%D0%BF%D0%BB%D0%B0%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA> <https://lex.uz/docs/4291733?quyery=plastik>
- [8] Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra suv unumdarligini taqqoslash - WDI (2023)ni qarang: <https://data.worldbank.org/indicator/ER.GDP.FWTL.M3.KD?locations=UZ>
- [9] O'g'itlardan foydalanishni taqqoslashga qarang: <https://data.worldbank.org/indicator/ag.con.fert.zs> .

Havolalar:

- IEA (2022), Energy Policy Review: Uzbekistan, <https://iea.blob.core.windows.net/assets/0d00581c-dc3c-466fb0c8-97d25112a6e0/Uzbekistan2022.pdf>.
- IEA (2020), Uzbekistan Energy Profile Country Report, International Energy Agency, Paris.
- IRENA (2022), Energy Profile: Uzbekistan, International Renewable Energy Agency, Masdar City, www.irena.org/media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical_Profiles/Asia/Uzbekistan_Asia_RE_SP.pdf.
- Mirkasimov, B. et al. (2023), "Determinants of carbon emission and the potential economic impact of 'green' economy strategies" in Central Asia: Kazakhstan and Uzbekistan, CAREC Institute, Chapter-5.pdf (carecinstitute.org).
- OECD (2014), Green Growth Indicators 2014, OECD Publishing, Paris <http://dx.doi.org/10.1787/9789264202030-en>
- OECD (2017), Green Growth Indicators 2017, OECD Publishing, Paris.
- OWD (2023), "CO2 emissions", Our World in Data (database), <https://ourworldindata.org/co2-emissions> (accessed 13, 04 2023).
- Roser, M., H. Ritchie and E. Ortiz-Ospina (2021), "Excess fertiliser: How over-fertilization harms the environment and food security", Our World in Data (database), <https://ourworldindata.org/excess-fertilizer> (accessed 05 06 2023).

4-bob: Tabiiy zaxiralarning asoslari

Ushbu bobda iqtisodiyot o'sishi bilan tabiiy zaxiralar bazasi miqdor, sifat yoki qiymat jihatidan barqaror chegara qiymatlarida saqlanib turishini aks ettiradigan "yashil o'sish" ko'rsatkichlari (YAO'K) guruhi o'lchanadi.

O'zbekistonning boyligi va xalqining farovon hayoti uning boy tabiiy zaxiralariga chuqr singib ketgan. Ushbu bobda keltirilgan ko'rsatkichlar O'zbekiston iqtisodiyoti tabiiy zaxiralar bazasiga nisbatan kamroq bosim yuklash sharoitida o'sishda davom etadimi degan savolga javob berishga yordam beradi. Tabiiy zaxiralar bazasi ko'rsatkichlaridagi yutuqlarni tabiiy boylik zaxiralari va biologik xilma-xillikkagi o'zgarishlarni kuzatish orqali ko'rish mumkin.

4.1 Qayta tiklanadigan tabiiy boyliklar

Suv va o'rmon kabi qayta tiklanadigan tabiiy boyliklar O'zbekiston iqtisodiyotining ajralmas qismidir. O'rmonlar ko'plab, jumladan, rekreatsion va ekotizim xizmatlari kabi vazifalarni bajarsa-da, ularni barqaror boshqarish juda qiyin. Shuning uchun, O'zbekistonning cheklangan chuchuk suv zaxiralari katta ekologik va iqtisodiy ahamiyatga ega. Biroq, ularning haddan tashqari olinishi suv zaxiralariga og'ir yuk bo'ladi.

Ko'rsatkichlar:


- o'rmon maydoni
- o'rmon fondi
- chuchuk suv tortib olish
- suv tanqisligi
- tarmoqlar bo'yicha chuchuk suvdan foydalanish.

4.1-diagramma. O'rmon maydoni




Manba: Statistika agentligi, 2023 yil

4.2-diagramma. O'rmon fondi




Manba: IHTT, 2023 yil

4.3-diagramma. Chuchuk suv yetishmasligi va stress



Manba: Jahon banki, 2023 yil; Statistika agentligi, 2023 yil.

4.4-diagramma. Tarmoqlar bo'yicha chuchuk suvdan foydalanish



Manba: Jahon banki, 2023 yil

Asosiy tendensiylar

O'zbekiston hududining o'rmon bilan qoplanish darajasi 2014-2020 yillarda ortgan

2014-2020 yillarda O'zbekiston o'rmonlari maydoni uchdan bir qismga - 9 mln gektardan 12 mln gektargacha oshgan, bu 2020 yildagi umumiy yer maydonining 8,4% ni tashkil etadi (4.1-diagramma). 2020 yilga kelib O'zbekiston Markaziy Osiyodagi o'rmonlar maydoni bo'yicha Turkmanistondan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. Ushbu o'sishga qaramay, qamrov Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi (YeMO) bo'yicha o'rtacha 38,5% va umumjahon bo'yicha o'rtacha 31,2% bo'lgan ko'rsatkichlardan pastligicha qolmoqda [1]. O'rmon daraxtlari zaxiralari hajmi to'g'risidagi so'nggi ma'lumotlar 1990 yildagi 70,8 mln kubometrdan (m^3) 2015 yilda 76,2 mln m^3 gacha o'sganligini ko'rsatadi (4.2-diagramma).

Chuchuk suv zaxiralariga tushayotgan yuklama yildan yilga ortib bormoqda

O'zbekistonda har yili chuchuk suv olish 1995 yildagi 54 mlrd m^3 dan 2019 yilda 59 mlrd m^3 gacha oshdi (4.3-diagramma). Ushbu tendensiya mamlakatni dunyodagi eng katta suv tanqisligini boshdan kechirayotgan mamlakatlar qatoriga qo'yadi. So'nggi o'ttiz yil ichida mamlakatning suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun har yili o'rtacha 52,6 mlrd m^3 chuchuk suv sarflandi. Shunisi e'tiborga loyiq-ki, 2014 yildan keyin sezilarli o'sish kuzatildi. Suv sarfi ko'rsatkichlarining oshishi qishloq xo'jaligidagi islohotlar bilan chambarchas bog'liq, ayniqsa paxta va bug'doy tarmoqlarida, ularga jami sarflangan chuchuk suvning 90 % dan ortig'i to'g'ri keladi (4.4-diagramma).

Ikki yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo yer usti suvlar O'zbekistonda chuchuk suvning asosiy manbalari hisoblanadi. O'zbekistonning milliy chegaralaridan tashqarida boshlanadigan va qo'shni Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan birga foydalaniladigan bu daryolar ko'pincha zaxiralarni taqsimlash bo'yicha tortishuvlarga sabab bo'ladi. Quyi oqimda joylashgan O'zbekistonning suv ta'minoti miqdori va sifati jihatdan suv sarfidagi har qanday og'ishlarga qarshi himoyasiz bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston o'z suv resurslariga tobora ko'proq bosim o'tkazmoqda. Suv iste'molining uning mavjudligiga nisbatini tavsiflovchi stress darajasi 1995-2019 yillarda 53% dan 68% gacha oshgan (4.3-diagramma). Suv olish darajasi yiliga 16 mlrd m^3 ni tashkil etadigan tiklanuvchi chuchuk suv resursidan sezilarli darajada oshadi [2]. Jahan resurslari instituti taxminlari shuni ko'rsatadiki, agar hozirgi amaliyat davom etsa, bu stress darajasi 2040 yilgacha saqlanib qoladi [3]. Qishloq xo'jalida eskirgan sug'orish infratuzilmasi tufayli suvning qariyb 40% yo'qolishi muammoni yanada murakkablashtiradi [4]. Bunga javoban O'zbekiston suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va suvni tejashga alohida e'tibor qaratish strategiyasini joriy etmoqda.

4.2 Qayta tiklanmaydigan resurslar


Bo'lim yer resurslari va tabiiy gazga bag'ishlangan. Yer resurslari O'zbekiston iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligi tarmog'i uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tabiiy gaz mamlakatning energetika sohasi va iqtisodiyoti uchun ham juda muhimdir.

Ko'rsatkichlar:


- yer maydoni
- qishloq xo'jaligi yerlari
- ekin maydonlari
- tabiiy gaz resurslari.

4.5-diagramma. Yer maydoni

4.6-diagramma. Qishloq xo'jaligi yerlari




Manba: Statistika agentligi, 2023 yil




Manba: Jahon banki, 2023 yil

4.7-diagramma. Ekin maydonlari



Manba: Statistika agentligi, 2023 yil Izoh: (1 km² = 100 ga).

4.8-diagramma. Tabiiy gaz ishlab chiqarish va iste'mol qilish



Manba: Statistika agentligi, 2023 yil

Asosiy tendensiyalar

1991 yildan 2020 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning quruqlik maydoni 3,6% ga oshdi

O'zbekistonning quruqlik maydoni oshdi, bu Orol dengizi kabi suv havzalarining quruqlik landshaftlariga aylanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 1991 yildan 2020 yilgacha bo'lgan davrda quruqlik maydoni 425 400 kv.km dan 440 650 kv.km (44 mln ga) gacha oshdi (4.5-diagramma). Bu o'zgarishlarning yaqqol misoli sifatida bir paytlar dunyodagi to'rtinchchi yirik ichki suv havzasini bo'lgan Orol dengizi 85% ga qisqarganini keltirish mumkin. 1960-2018 yillarda u 68000 kv.km dan 10200 kv.km gacha kamaydi (Fangdi va Ma, 2019).

Mamlakat yerlarining qariyb 30% (13 mln hektar) jiddiy yaroqsiz holatga kelgan, yaroqsiz bo'lgan yerlarning katta qismini tabiiy yaylovlar tashkil qiladi (Jahon banki, nashrga tayyorlanmoqda). Suv tanqisligi, tuproqning yomonlashuvi va sho'rланish yaroqsiz holatga kelishning asosiy sabablari hisoblanadi.

2000 yildan boshlab qishloq xo'jaligi yerlarining ulushi kamaydi.

2020 yilda qishloq xo'jaligi yerlarining ulushi, shu jumladan vaqtinchalik va doimiy ekinlar uchun yerlar va yaylovlar 1991 yilga nisbatan 7% ga kamaydi. Ularning ulushi umumiylar quruqlik maydonining 58% ni tashkil etdi, bu 256 ming kv.km (25,6 mln ga) ga teng (4.6-diagramma). Qishloq xo'jaligi yerlarining qisqarishi har yili ishlov beriladigan ekin maydonlarining kamayishini aks ettiradi, bu ko'rsatkich 2000 yildan 2020 yilgacha bo'lgan davrda umumiylar maydonning 34 ming kv.km (3,4 mln hektar) dan taxminan 32 ming kv.km (3,2 mln hektar) gacha, ayniqsa, 2017 yilda sezilarli darajada kamaygan (4.7-diagramma). Bunga hukumatning 2017-yilda joriy etilgan sug'oriladigan paxta va g'alla fermer xo'jaliklarini qisqartirish strategiyasi sabab bo'ldi [4].

Qishloq xo'jaligi yerlari bir necha sabablarga ko'ra sezilarli darajada yaroqsiz holga kelgan. Masalan, noto'g'ri sug'orish kabi omillar tuproqning sho'rланishiga olib keladi. Boshqa omillar sirasiga yaylovnin yomon boshqarish, va go'ngdan samarasiz foydalanish, shuningdek, haddan tashqari chorva boqish kiradi. O'zbekiston - mamlakatda iqlimi rivojlantirish dasturida (Jahon banki, nashrga tayyorlanmoqda) yerlarning jiddiy yaroqsizlanishi bilan bog'liq xarajatlarni yalpi ichki mahsulot (YAIM) ning 4,6% miqdorida baholagan. Boshqa omillar qatorida, bu qishloq xo'jaligi mahsuldorligining pasayishi, tuproq yemirilishining kuchayishi, suv mavjudligi darajasining pasayishi, uglerod yig'ilishining va ekotizim xizmatlarining yo'qolishini hisobga oladi.

2010 yildan beri O'zbekistonda organik dehqonchilik o'sganiga qaramay, bunday dehqonchilik bilan qamrab olingen yer maydoni juda kam (Kodirxonov, O'jaboyev va Xoldorov, 2022). Organik qishloq xo'jaligi yerlarining ulushi atigi 932 hektarni tashkil etdi, bu 2021 yilda qishloq xo'jaligi yerlari umumiylar maydonining 0,004% ni tashkil etadi (Kodirxonov, O'jaboyev va Xoldorov, 2022). Ushbu amaliyotni kengaytirish uchun hukumat ba'zi hududlarda pilot loyihalarni boshladi. Nodavlat tashkilotlar va xalqaro institutlar ham organik dehqonchilik usullarini ilgari surishda yordam bermoqda.

2015 yildan buyon tabiiy gaz qazib olish va iste'mol qilish hajmi ortgan.

O'zbekiston tabiiy gaz qazib olish bo'yicha 11-o'rinni va tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha 14-o'rinni egallaydi. Tabiiy gaz qazib olish 2008 yildan 2014 yilgacha kamaygan bo'lsa-da, ammo 2021 yilda u 54 mlrd m³ gacha tiklandi (4.8-diagramma). Ishlab chiqarilgan tabiiy gazning 80 % dan ortiq'i mamlakat ichida iste'mol qilinadi. So'nggi paytlarda ishlab chiqarish va iste'mol o'tasidagi farq minimal darajada edi.


Import, ayniqsa qish davrida ko'paygan bo'lsa-da, 2000-yillarning boshidan buyon asosan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston kabi mamlakatlarga eksport qilish muhimligicha qolmoqda. Taxminlar gaz zaxiralarini 20-30 yil ichida tugashi mumkinligini ko'rsatmoqda. Bu hukumatni ichki ehtiyojlarni birinchi o'ringa qo'yib, 2025 yilga qadar eksportni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilishga undadi (Jahon banki, nashrga tayyorlanmoqda). Shunga qaramay, ushbu sohada samarasizlik keng tarqalgan. O'tkazish va tarqatish tizimiga kelib tushishidan tortib savdo tizimiga yetib borish oraliq'ida hajmdagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Garchi milliy statistika oshkor etilmagan bo'lsa ham 2022 yilda bunday yo'qotishlar, shu jumladan o'g'irlilik, umumiylar gaz iste'molining 2,4% ni tashkil etdi (Jahon banki, nashrga tayyorlanmoqda).

4.3 Biologik xilma-xillik

Biologik xilma-xillik holatini yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvon turlarining ko'payishi bilan o'lchash mumkin. Shunga ko'ra, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni himoya qilish maqsadida tabiiy yashash joylarini tiklash uchun muhimdir.


- qo'riqlanadigan hudud
- biologik xilma-xillik va xavf ostida bo'lgan yovvoyi tabiat
- sirt haroratining o'zgarishi.

4.9-diagramma. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar




Manba: Statistika agentligi, 2023 yil

4.10-diagramma. Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlar



Manba: Fanlar Akademiyasining "Qizil kitobi", 2019.

4.11-diagramma. O'rtacha yillik harorat



Manba: IHTT, 2023 yil

Asosiy tendensiyalar

2011 yildan 2021 yilgacha O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar soni uch baravar ko'paydi

O'zbekistonda biologik xilma-xillik va ekotizimlarni saqlash uchun zarur bo'lgan 41 ta muhofaza etiladigan tabiiy hudud mavjud (UNEP-WCMC, 2023). Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni uch baravar - 2011 yildagi 0,8 mln getkardan 2021 yilda 3,5 mln getkar, yoki 34 578 kv.km gacha (quruqlik maydonining 8%) oshdi (4.9-diagramma). 2021-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonning 13 ta hududidan 8 tasida muhofaza etiladigan yerlar tashkil etilgan bo'lib, ularning 75% Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri kelgan. Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi muhofaza qilinadigan hududlarni boshqaradi va me'yoriy hujjatlarga rioya etilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Milliy bioxilma-xillikni saqlash strategiyasi va harakatlar rejasida va "2019-2028 yillar uchun bioxilma-xillikni saqlash strategiyasi"da ko'rsatilganidek, 2028 yilga kelib muhofaza etiladigan hududlarning umumiy qamrovini o'z hududining 12% gacha oshirish majburiyatini oldi [6].

O'zbekistonda "Qizil kitob"ga kiritilgan noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlar soni ortib bormoqda

O'zbekistonning biologik xilma-xilligi 4300 dan ortiq o'simlik turlarini (flora) va 15000 turdag'i hayvonlarni (fauna) o'z ichiga oladi, ko'plab endemik turlar mamlakatning xilma-xil ekotizimini aks ettiradi (BMTTD, 2015). Noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi tabiat va o'simlik turlarini o'z ichiga olgan O'zbekiston Qizil kitobida 2009-yilda 498 ta yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlar kiritilgan bo'lsa, 2019-yilda Qizil kitobning beshinchisi nashrida ularning soni 516 taga yetgan (4.10-diagramma). Iqlim o'zgarishi, yaylovlardan xo'jasizlarcha foydalanish, betartib ov va brakonyerlik kabi omillar bu turlarning omon qolishiga tahdid soladi. Masalan, Buxoro kiyiklari va Turkiston silovsini soni kamayib bormoqda, bu birinchi navbatda ov va brakonyerlik bilan bog'liq (Qishloq xo'jaligi vazirligi, 2019).

O'zbekistonda o'rtacha yillik harorat (°C) 50 yil ichida 35% ga oshdi.

O'zbekistonda o'rtacha yillik sirt harorati elliq yil ichida 35% ga ($3,5^{\circ}\text{C}$) oshdi (4.10-diagramma). Masalan, 1972 yilda 11°C bo'lgan o'rtacha yillik harorat 2021 yilda $14,8^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarildi. Haroratning ko'tarilishi ekotizimlarni o'zgartirdi, bu esa tabiiy yashash joylari va ularning hisobiga yashaydigan boy biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib keldi. Bu o'zgarishlarning yuki asosan Orol dengizi mintaqasi hududiga tushdi.

Ko'rsatkichlarni aniqlash

Quruqlik maydoni: FAO va Jahon banki ma'lumotlar bazalari quruqlik maydonini mamlakat maydonidan ichki suv havzalari (daryolar va ko'llar) ostidagi maydonni istisno etgan holda yer maydoni deb ta'riflaydi. O'zbekiston ham xuddi shunday ta'rifga amal qiladi. Yer resurslari oziq-ovqat ishlab chiqarish, biologik xilma-xillikni saqlash va uglerodni saqlanishi uchun juda muhimdir. Yerga tabiiy va yarim tabiiy o'simliklar, taqir yerlar, haydaladigan yerlar va sun'iy (qurilgan) yuzalar kiradi.

Qishloq xo'jaligi yerlari: yer maydonining haydaladigan (vaqtinchalik ekinlar), doimiy ekinlar va doimiy yaylovlar ostida bo'lgan qismi (Jahon banki).

Ishlov beriladigan (haydaladigan) yerlar: qishloq xo'jaligi yerlarining oziq-ovqat va ozuqa yetishtirish uchun har yili ishlov beriladigan (haydaladigan) qismi.

O'rmon maydoni: quruqlikning umumiy maydonida o'rmon bilan qoplangan qismi. O'rmon resurslari iqlimni tartibga solish, biologik xilma-xillikni himoya qilish va ekotizim xizmatlarini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega.

O'rmon fondi: o'rmonli hududlarda tik turgan, ko'krak balandligida ma'lum diametrli daraxtlar zaxirasi, kubometrda o'lchanadi (FAO). Bu ko'krak balandligida diametri kamida 10 sm bo'lgan barcha qurimagan daraxtlar tanasining yer sathidan boshlab yuqori diametri 0 sm gacha, ya'ni uchigacha (shoxlardan tashqari) bo'lgan qismining hajmi (IHTT).

Qayta tiklanadigan chuchuk suv manbalarining oqimi: ichki daryo oqimlari va mamlakatda yog'ingarchilik natijasida hosil bo'lgan yer usti suvlari. Ushbu oqim doimiy va mavsumiy yer usti suvlari, shu jumladan qo'shni mamlakatlardan oqib keluvchi suvlarni o'z ichiga oladi.

Suv iste'moli: barcha asosiy tarmoqlar (qishloq xo'jaligi, maishiy foydalanish va sanoat) tomonidan chuchuk suv olish darajasi, mavjud chuchuk suv resurslariga nisbatan % da.

Suv stressi: suv olish jadalligi. Suv tanqisligi darajasi mamlakatning suvgaga bo'lgan talabni qondirish uchun suv resurslaridan foydalanish darajasini ko'rsatishi mumkin.

Qo'riqlanadigan hududlar: milliy hokimiyat organlari tomonidan jamoatchilikka kirish imkoniyati cheklangan ilmiy qo'riqxonalar sifatida belgilangan milliy bog'lar, tabiat qo'riqxonalari va yovvoyi tabiat qo'riqxonalari.

Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlar: yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan va zaif turlar, ya'ni yo'q bo'lib ketish xavfi ostida bo'lgan yoki tez orada yo'q bo'lib ketishi mumkin bo'lgan o'simliklar va hayvonlar.

O'lchovlilik va izohlash bo'yicha texnik sharhlar

4.1-jadvalda ushbu bobga kiritilgan ko'rsatkichlar uchun o'lchov, izoh va ma'lumotlar manbai bo'yicha sharhlar keltirilgan.

4.1-jadval. Tabiiy boyliklarga asoslangan o'lchov, izoh va ma'lumotlar manbalari

Ko'rsatkich	O'lchov birligi, o'lchanish va izoh	Ma'lumotlar manbai va qamrab olingan yillar
O'rmon maydoni	- O'rmon maydoni (mln ga) - o'rmon maydonining umumiyo quruqlik maydonidagi ulushi. Ko'rsatkich O'zbekistonda ko'p yillar davomida o'rmonlarni yaratilishi yoki o'rmonlarning ommaviy kesilishi sodir bo'lganligini ko'rsatadi.	Statistika agentligi (SA) 2014-20 https://stat.uz/en/official-statistics/environment .
O'rmon fondi	Ko'rsatkich mln kubmetr (m^3) bilan o'lchanadigan yog'och resurslari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, u o'rmonda mavjud bo'lgan CO_2 miqdorini baholash uchun asos yaratadi. IHTT har besh yillik davrga oid ma'lumotlarga ega.	IHTT, 1990-2015 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH .
Chuchuk suv olish	O'zbekiston har yili turli maqsadlar uchun oladigan chuchuk suv hajmi, mlrd m^3 da.	Jahon banki, 1994-2019 yillar https://data.worldbank.org/indicator/ER.H2O.FWAG.ZS?locations=UZ .
Suv tanqisligi	Bunda, suv olish mavjud suv resurslarining % da o'lchanadi. MO, shuningdek, toza suv bilan ta'minlash maqsadining bir qismi sifatida ushbu ko'rsatkich bo'yicha hisobot beradi.	MO va Jahon banki, 1994-2019 https://nsdg.stat.uz/en/goal/9 .
Tarmoqlar bo'yicha suv iste'moli	Umumiyo chuchuk suv olish hajmiga nisbatan % da o'lchanadi. Ko'rsatkich iqtisodiyotning qaysi tarmoqlari chuchuk suvning katta qismini iste'mol qilishini ko'rsatadi.	Jahon banki, 1994-2019 yillar https://data.worldbank.org/indicator/ER.H2O.FWAG.ZS?locations=UZ .
Yer resurslari	Ko'rsatkich mamlakatning yashash uchun yaroqli maydonini (kv.km), shu jumladan qishloq xo'jaligi va o'rmon maydonini o'lchaydi.	Markaziy Osiyo, 1991-2019 https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2 .
Qishloq xo'jaligi yerlari	U yer maydonlaridan qishloq xo'jaligi (e'kinlar, bog'lar va yaylovlardan) uchun yaroqli qismini % va kv.km da o'lchaydi.	Jahon banki va FAO, 1990-2020, https://data.worldbank.org/indicator/AG.LND.AGRI.ZS?locations=UZ .

Ishlov beriladigan/haydaladigan yer maydonlari	Yillik ekinlar uchun ishlov beriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining foizi.	Markaziy Osiyo, 2000-20, https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2 .
Tabiiy gaz zaxirasi	Ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmi (mlrd m ³).	Markaziy Osiyo, 2000-20 https://stat.uz/en/official-statistics/industry .
Qo'riqlanadigan hudud	Inson faoliyati cheklanib, himoyalangan yer maydonlari (ga) va foiz ulushi.	Markaziy Osiyo 2011-21 https://stat.uz/en/official-statistics/ecology .
Xavf ostida bo'lgan yovvoyi tabiat	Baholangan yoki ma'lum bo'lgan turlar orasida yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlar (hayvonlar va o'simliklar) soni. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi vaqtqi-vaqtqi bilan inventarizatsiya qiladi va "Qizil kitob"da nashr etadi. 5-nashr 2019 yilda chop etilgan.	O'zbekiston Qizil kitobi,2019 www.researchgate.net/publication/334913462_Red_Book_Uzbekistan yoki https://kun.uz/en/news/2019/12/10/uzbekista n-publishes-a-new-edition-of-the-red-book .
Yillik sirt haroratining o'zgarishi	O'rtacha yillik sirt haroratining Selsiy (°C) darajasida o'zgarishi.	IHTT 1901-2021 yillar, https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH .

Izoh

- [1] O'rmon maydonlarini taqqoslash uchun qarang: <https://data.worldbank.org/indicator/AG.LND.FRST.ZS>
- [2] Chuchuk suv bo'yicha ma'lumotlar uchun qarang:
<https://data.worldbank.org/indicator/ER.H2O.FWAG.ZS?locations=UZ> .
- [3] Xalqaro Suv resurslari Institutining Mamlakatlar bo'yicha suv stressi hisoboti uchun qarang:
www.wri.org/data/water-stress-country .
- [4] Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2020-2030-yillarga mo'ljallangan qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/4567337> .
- [5] Muhofaza qilinadigan hududlar bo'yicha ma'lumotlar uchun qarang: <https://stat.uz/en/official-statistics/ecology>
- [6] Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 1-iyundagi 484-soni "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori <https://lex.uz/docs/4372841#4376308> .

Tavsiyalar

- Fangdi, S. and R. Ma (2019), "Hydrologic changes of Aral Sea: A reveal by the combination of radar altimeter data and optical images", Annals of GIS, Vol. 25/3, pp. 247-261, <https://doi.org/10.1080/19475683.2019.1626909>.
- Kodirkhonov, B., J. Uljabaev and S. Kholdorov (2022), "Organic agriculture in Uzbekistan: SWOT analysis", OP Conference Series: Earth and Environmental Science, Volume 979, International Scientific and Practical Conference "Improving Energy Efficiency, Environmental Safety and Sustainable Development in Agriculture" (EESTE 2021) 19/10/2021 - 24/10/2021 Moscow B M IOP Conf. Ser.: Earth Environmental Science Vol. 979/012140, <http://doi.org/10.1088/1755-1315/979/1/012140>.
- Ministry of Agriculture (2019), Protected Natural Areas of Uzbekistan,
https://uzbekistanembassy.in/docs/Protected_Natural_Areas_of_Uzbekistan.pdf.
- United Nations Development Program (UNDP) (2015), Fifth National Report of the Republic of Uzbekistan on Conservation of Biodiversity. Tashkent Uzbekistan, www.cbd.int/doc/world/uz/uz-nr-05-en.pdf.

United Nations Environment Program (UNEP-WCMC) (2023), Protected Area Profile for Uzbekistan from the World Database on Protected Areas, August 2023, www.protectedplanet.net.

World Bank (forthcoming), *Uzbekistan Country Climate Development Report*, Tashkent.

5-боб: Hayot sifatining ekologik jihatni

Ushbu bobda atrof-muhit holati va xatarlarining odamlar hayot sifati va farovonligi bilan o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar ko'rib chiqiladi. Ular O'zbekistonda daromadlarning o'sishi odamlar hayot sifatining oshishi bilan qay darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu bobda "yashil" o'sish farovonlikni oshirishga olib keladimi yoki yo'qmi degan masala IHTT doirasida ko'rsatkichlarni quyidagi ikkita mavzu bo'yicha guruhash orqali o'rganiladi:

Hisobotni tayyorlash paytida hayot sifatini ekologik o'lchashning aksariyat ko'rsatkichlari bo'yicha milliy statistika ma'lumotlari mavjud emas edi. Statistika agentligi havoning ifloslanish darajasi va o'lim sabablari, shu jumladan nafas olish muammolari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi. Shuningdek, u barqaror rivojlanish maqsadlari monitoringining bir qismi sifatida ekologik xizmatlar, jumladan, xavfsiz ichimlik suvi va kanalizatsiya xizmatlaridan foydalanish bo'yicha ma'lumotlarni ham taqdim etadi. Biroq, bunda ifloslantiruvchi moddalar turlari va qattiq zarrachalar (QZ) konsentratsiyasi haqida ma'lumot berilmaydi. Shuningdek, u ekologik xavf ostida bo'lgan aholining farovonligi va iqtisodiy xarajatlarini baholamaydi


5.1 Atrof-muhit salomatligi uchun xavflar va xarajatlar

O'zbekistondagi atrof-muhit holati aholining sog'ligiga ta'sir qiladi va shu bilan hayot sifatini pasaytirishi va ijtimoiy ta'minot xarajatlarini oshirishi mumkin. Havoning qattiq zarrachalar (QZ) bilan ifloslanishi inson salomatligi uchun eng jiddiy muammo hisoblanadi. Ushbu bo'lim tashqi havoning ifloslanishiga qaratilgan.

Ko'rsatkichlar:


- havoning ifloslanishi
- QZ ning o'rtacha yillik konsentratsiyasi
- QZ ning aholiga ta'siri 2,5
- nafas olish kasalliklari natijasida o'lim holatlari
- o'lim va QZ ta'siri bilan bog'liq xarajatlar 2,5
- ozon gazi ta'siri bilan bog'liq o'lim holatlari va xarajatlar
- qo'rg'oshin gazi ta'siri bilan bog'liq o'lim holatlari va xarajatlar.

5.1-diagramma. Havoning ifloslanishi konsentratsiyasi va QZ ning aholiga ta'siri 2,5




Manba: Statistika agentligi, 2023 yil

5.2-diagramma. QZ ning o'rtacha yillik konsentratsiyasi




Manba: IHTT, 2023 yil

5.3-diagramma. Nafas olish kasalligi natijasida o'lim holatlari




Manba: Statistika agentligi, 2023 yil

5.4-diagramma. QZ2,5 ta'siri natijasida o'lim holatlari va ijtimoiy ta'minot xarajatlari




Manba: IHTT, 2023 yil

5.5-diagramma. Ozon gazi (O_3) ta'siridan o'lim holatlari va ijtimoiy xarajatlar



Manba: IHTT, 2023 yil

5.6-diagramma. Qo'rg'oshin gazining ta'siridan o'lim holatlari va ijtimoiy xarajatlar



Manba: IHTT, 2023 yil

Asosiy tendensiyalar

O'zbekistonda havoning ifloslanishi tobora ortib bormoqda, bu esa uni "dunyoning eng ifloslangan mamlakatlaridan" biriga aylantirmoqda.

Atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar hajmida ifodalangan havo ifloslanishi 2010 yildan buyon keskin oshdi. 2015 yilda u yillik eng yuqori darajaga - 975 000 tonnaga (t) yetdi, shundan so'ng u 2021 yilda 909 000 tonnaga tushdi (5.1-diagramma). Ifloslantiruvchi moddalarning asosan sulfatlar, nitratlar, ammiak, natriy xlorid, qurum, mineral chang va suvdan tarkib topgan. Havoda kattaligi 2,5 mikrometrli mayda zarrachalar (QZ2,5) konsentratsiyasi odatda yuqori. So'nggi o'n yil ichida u Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) sog'liq uchun zararli deb hisoblagan bir kubometrغا 35 mikrogramm (mkg/m^3) ko'rsatkichidan oshib ketdi (5.2-diagramma) [1], [2].

2022-yilda QZ_{2,5} ning o'rtacha yillik 33,5 mkg/m^3 konsentratsiyasi bilan O'zbekiston havo sifati bo'yicha

dunyoning eng ifoslangan mamlakatlar ro'yxatida 20-o'rinni egalladi va Markaziy Osiyoda (MO) Tojikistondan keyin ikkinchi bo'ldi [3], Mamlakatdagi havoning ifoslanishi bilan bog'liq muammolarning aksariyati Orol dengizining cho'llanishi va temir oksidi va boshqa zaharli QZlarni tashuvchi chang bo'ronlari bilan bog'liq. Shu bilan birga, Toshkent shahridagi ifoslanish asosan transport vositalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, ular 2021 yilda umumiy manbalarning taxminan 60% ni tashkil etdi (Eurasianet, 2022).

UPL Uzbekistan yangiliklar kanali Jahon havo sifati indeksi (AQI) standartlari asosida Toshkent shahridagi QZ_{2,5} va QZ₁₀ uchun real vaqt rejimida havo sifatining kunlik ko'rsatkichlarini e'lon qiladi [4]. Shuningdek, u havo ifoslanishining kunlik konsentratsiyasini mkg/m³ da JSST tomonidan tavsiya etilgan ruxsat etilgan chegaraviy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi.

2010 yildan beri O'zbekiston aholisining yarmidan ko'pi havoning zararli darajada ifoslanishi ta'siriga duch kelmoqda.

So'nggi o'n yil ichida sog'liq uchun zararli QZ_{2,5} konsentratsiyasi ta'siri ostida bo'lgan aholining ulushi taxminan 80 % dan 56% gacha kamaydi. Biroq, 2010-yildan buyon O'zbekiston aholisining yarmidan ko'pi har kuni 35 mkg/m³ dan ortiq bo'lgan QZ2,5 ning zararli konsentratsiyasiga duch kelmoqda (5.2-diagramma). Aholining bu zararli ta'sir darajasi dunyo bo'yicha o'rtacha 10% ko'rsatkichdan besh baravar ko'p [3].

Havoning ifoslanishi tufayli o'lim holatlari va erta o'lim xarajatlari yuqori va dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan oshadi.

2022 yilda nafas olish yo'llari kasalliklari o'lim holatlarining deyarli 10% ga sabab bo'ldi (5.3-diagramma). Qoraqalpog'istonning qurg'oqchil zonasida surunkali bronxit holatlari mamlakatning qolgan qismiga qaraganda 2,5-3,0 baravar yuqori (IQAIR, 2021). O'zbekistonda tashqi havoning ifoslanishi bilan bog'liq o'lim holatlari dunyoda uchinchi o'rinda turadi (AQSHning O'zbekistondagi elchixonasi, 2019). Xususan, so'nggi 30 yil ichida O'zbekistonda har yili 1 mln aholiga 750 dan ortiq kishi QZ2,5 ta'siridan vafot etdi (5.4-diagramma), bu 2019 yildagi dunyo bo'yicha o'rtacha 645 kishilik ko'rsatkichdan yuqori [5].

Natijada, O'zbekistonda QZ_{2,5} ta'siridan erta o'lim holatlarining iqtisodiy xarajatlari o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Bu xarid qobiliyati paritetlari (XQP) da o'lchanadigan Yalpi ichki mahsulot (YalM) ekvivalentining o'rtacha 8,7% ni tashkil etadi va 2019 yilda ShYeKMO mintaqasi bo'yicha o'rtacha 6,4 % dan yuqori [5].

Ozon va qo'rg'oshin gazlari ta'sirida o'lim holatlari va ijtimoiy ta'minot xarajatlari kamaydi

Ozon ifoslanish ta'siridan o'lim holatlari 1990-2019 yillarda kamaydi (5.5-diagramma). Ozon ta'siri 2019 yilda bir mln aholi orasida 7 ta o'lim holatiga olib keldi, 1990 yilda bu ko'rsatkich 21 ta o'lim holatini tashkil etgan. Ozon ta'siri bilan bog'liq yillik ijtimoiy ta'minot xarajatlari xuddi shu davrda YalM ekvivalentining 0,26 % dan 0,09% gacha kamaydi (XQP bo'yicha) (5.5-diagramma). Xuddi shunday, 1990-2019 yillar davomida har yili qo'rg'oshindan zaharlanish tufayli har mln aholiga 100 kishi vafot etgan (5.6-diagramma). Qo'rg'oshindan zaharlanish tufayli kelib chiqadigan iqtisodiy yo'qotishlar o'rtacha YAIMning 1,2% ga teng bo'lgan (XQ bo'yicha).


5.2 Ekologik xizmatlar

Lozim darajada xavfsiz ichimlik suvi, sanitariya va kanalizatsiya tizimlaridan foydalanish mamlakatning iqtisodiy o'sishi va jamoat sog'lig'inii saqlash uchun juda muhimdir (IHTT, 2014). Toza suv va sanitariya sharoitlaridan foydalanish Barqaror rivojanish maqsadlari (BRM)ning 6-maqsadi hisoblanadi. O'zbekistonda asosiy vazifa chekka hududlarni qamrab olish va qishloq aholisining markazlashtirilgan ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Ko'rsatkichlar


- xavfsiz ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklarining ulushi
- kanalizatsiya tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklarining ulushi
- sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan aholining ulushi.

5.7-diagramma. Xavfsiz ichimlik suvi va kanalizatsiya xizmatlaridan foydalanish



Manba: Statistika agentligi, 2023 yil

5.8-diagramma. Sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan aholi



Manba: Juhon banki, 2023 yil

5.1-jadval. Ichimlik suvi va kanalizatsiya xizmatlaridan foydalanish (uy xo'jaliklari ulushi), 2021 yil, hududlar bo'yicha

Hudud	Ichimlik suvidan foydalanish (uy xo'jaliklari ulushi)	Kanalizatsiya tizimidan foydalanish (uy xo'jaliklari ulushi)
O'zbekiston Respublikasi	68.3	43.6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	57.5	15.6
Andijon	77.3	28.5
Buxoro	50.9	27
Jizzax	63.2	28.5
Qashqadaryo	35.8	22.5
Navoiy	72.5	36.5
Namangan	85.5	40.7
Samarqand	63.7	42.2
Surxondaryo	78.4	35.4
Sirdaryo	84	36.8
Toshkent	75.4	63.8
Farg'ona	68.7	52.7
Xorazm	40.6	29
Toshkent shahri	97.2	100

Manba: Statistika agentligi, 2023 yil

Asosiy tendensiyalar

Xavfsiz ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklarining ulushi 2015 yildan buyon kamaydi va qishloq joylarda undan foydalanish hali ham muammo bo'lib qolmoqda

So'nggi o'n yil ichida yaxshilangan va xavfsiz manbadan olingen ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklarining ulushi 10% ga kamaydi. 2022-yilda O'zbekiston uy xo'jaliklarining 72% xavfsiz ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan, bu 2010-yildagi 82,5 % dan kam (5.7-diagramma). Bu ulush asosan aholi va uy-joy fondining ko'payishiga qaramay, suv va kanalizatsiya infratuzilmasi eski holatda saqlanib qolgani tufayli qisqargan yoki o'zgarmagan (Jahon banki, 2022). Bu ulush dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan kam, shaharlar va qishloqlar o'tasida katta farq mavjud. Toshkent shahridagi uylarning 97 % dan ortig'i ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, Qashqadaryo viloyati eng past ko'rsatkichga ega (5.1-jadval).

So'nggi uch yil ichida kanalizatsiya tizimiga ega bo'lgan uy xo'jaliklarining ulushi oshdi

O'zbekiston 2020-yildan beri jamoat kanalizatsiya tizimlarini sekin-asta va barqaror kengaytirishda ma'lum yutuqlarga erishdi (5.7-diagramma). Shunga qaramay, 2022-yilda uy xo'jaliklarining yarmidan kamroq'i (48%) kanalizatsiya tizimiga ulangan bo'lib, shaharlar va mintaqalar o'tasida farq mavjud. Masalan, Toshkent shahridagi barcha uy xo'jaliklari kanalizatsiya tozalash tizimiga ulangan. Biroq, Qoraqalpog'istonda uy xo'jaliklarining atigi 16% ulangan (5.1-jadval). Jahon banki (2022) qishloq joylaridagi uy xo'jaliklarining aksariyati faqat qo'lbola kanalizatsiya tizimlariga - quruq axlatxonalarga yoki chiqindilari joyida olib tashlanadigan septiklarga ega ekanligini qayd etadi. Bundan tashqari, yig'ilgan chiqindi suvlari xalqaro standartlarga muvofiq qayta ishlanmaydi.

O'zbekiston aholining yaxshilangan sanitariya sharoitlaridan 100% foydalanishiga erishdi

O'zbekistonning butun aholisi 2014-yilda yaxshilangan sanitariya sharoitlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, 2000-yildagi 93% ga nisbatan taraqqiyot kuzatildi (5.8-diagramma). Shunday qilib, mamlakat sanitariya-gigiyenadan umumaholi foydalanishga erishish yo'lida BRMdagi 2030 yilgacha oltinchi maqsadga erishdi.

Ta'rif

Qattiq zarrachalar (QZ): mikroskopik zarrachalar yoki suyuqlik tomchilarini o'z ichiga olgan havoni iflosantiruvchi moddalar, ular nafas bilan organizmga tushishi va jiddiy sog'liq muammolariga va erta o'limga olib kelishi mumkin. Ba'zi QZ (diametri 10 mikrometrдан kam) inson o'pkasiga va qon oqimiga tushishi mumkin. Hisobotda sog'liq uchun eng katta xavf tug'diradigan QZ 2,5 to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Havoning mayda qattiq zarrachalar bilan ifloslanishining aholiga ta'siri: yil davomida QZ2,5 konsentratsiyasi o'rtacha bo'lgan atmosfera havosining ifloslanishi ta'siri ostida bo'lgan tipik aholining ulushi (sun'iy yo'l dosh kuzatuvlari yoki yer monitoringi asosida aniqlanadi va mkg/m³ da o'lchanadi). Ushbu hisobotda yillik konsentratsiyasi 35 mkg/m³ dan yuqori bo'lgan hududlarda yashovchi aholi ulushi ko'rsatilgan.

Xavfsiz ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklarining ulushi: uy, hovli yoki uchastkaga quvurlar orqali suv ta'minoti, umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan kranlar yoki suv quvurlari, quduqlar yoki quvrli quduqlar, himoyalangan qazilgan quduqlar, himoyalangan buloqlar, qadoqlangan suv, uyga yetkazib beriladigan suv va yomg'ir suvi kabi yaxshilangan ichimlik suvi manbalaridan foydalanuvchi uy xo'jaliklari. Korxona hududida zarurat tug'ilganda mavjud bo'lgan va atrof-muhitni iflosantirmaydigan yaxshilangan suv manbalarini joylashgan bo'lishi kerak.

Kanalizatsiya tozalash imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklarining ulushi: shahar kanalizatsiya yig'ish tizimiga jamoat kanalizatsiya tarmog'i orqali ulangan uy xo'jaliklari. Septik kabi alohida xususiy kanalizatsiya tozalash inshootlari hisobga olinmaydi.

Yaxshilangan sanitariya sharoitlaridan foydalanadigan aholi: asosiy qo'l yuvish vositalari va hojatxonalar, shu jumladan kanalizatsiya tizimiga ulangan hojatxonalar, septiklar yoki axlatxonalar, yaxshilangan shamollatiladigan axlatxonalar, plitali axlatxonalar va kompostlash uchun bio-hojatxonalar bo'lgan uy xo'jaliklar.

O'Ichovlilik va izohlash bo'yicha texnik sharhlar

5.2-jadvalda ushbu bobga kiritilgan YAO'Klar o'Ichovliligi, izohi va ma'lumotlar manbai bo'yicha sharhlar keltirilgan.

5.2-jadval. Hayot sifati ko'rsatkichlarining ekologik o'Ichovi bo'yicha YAO'K tizimi uchun o'Ichovlilik, izoh va ma'lumotlar manbai

Ko'rsatkichlar	O'Ichovlilik va o'Ichov birligi	Ma'lumotlar manbai va qamrab olingan yillar
Havoning ifloslanishi	Statistika agentligi (SA) yiliga ming tonna o'ichov birligida atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar miqdori to'g'risida ma'lumotni beradi.	SA 2015-21 https://stat.uz/en/official-statistics/ecology .
QZning yuqori konsentratsiyali havo ifloslanishi	Havo ifloslanishining standart ko'rsatkichi diametri 2,5 mikronдан kichik bo'lgan mayda zarrachalaming o'rtacha yillik konsentratsiyasini hisoblab chiqadi (QZ2,5). Ifloslantiruvchi moddalarning konsentratsiyasi har bir kubmetr havo uchun mikrogrammlarda (m^3/mkg) – havo ifloslanishini o'ichash birligida ifodalanadi. O'rtacha konsentratsiya darajasi 35 mkg/ m^3 dan yuqori bo'lganda jamoat sog'lig'i saqlash uchun zararli hisoblanadi [1], [2].	IHTT, 2010-19 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH .
QZ2,5 ning aholiga ta'siri	O'rtacha konsentratsiya darajasi 35 mkg/ m^3 dan yuqori bo'lgan havoning ifloslanishi ta'siri ostidagi aholining ulushi	IHTT, 2010-19 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH .
Nafas olish kasallikkleri natijasida o'lim	Barcha o'limlardagi ulush, foizda. SA bu ko'rsatkichni 2017 yildan buyon e'lon qilmoqda.	SA, 2017-22 https://stat.uz/en/official-statistics/demography .
QZ _{2,5} ta'siri natijasida o'lim darajasi	Har bir mln aholiga QZ _{2,5} ta'siridan o'lim holatlari soni	IHTT, 1990-2019 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH
QZ _{2,5} ta'siri tufayli iqtisodiy yo'qotishlar	YalM (XQP) ga ekvivalent foiz punktlarida ifodalangan QZ _{2,5} ta'siri natijasida ijtimoiy ta'minot xarajatlari.	IHTT, 1990-2019 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH
Aholiga ozon gazi (OG) ta'siri natijasida o'lim	Har bir mln aholiga to'g'ri keladigan ozon gazi ta'siridan o'lim holatlari. Ko'rsatkich o'pka muammolari va erta o'limga olib keladigan ozon ifloslanishi ta'siridan kelib chiqadigan o'limni kuzatib boradi. Ozon darajasi yuqori bo'lgan hududlarda ochiq havoda ishlaydigan ishchilar eng yuqori xavf ostida bo'ladi.	IHTT, 1990-2019 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH
Ozon gazining aholiga ta'siri tufayli iqtisodiy yo'qotishlar	Ozon ta'siri bilan bog'liq ijtimoiy sug'urta xarajatlari YAIMga ekvivalent foiz punktlarida.	IHTT, 1990-2019 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH
Qo'rg'oshin gazining aholiga ta'siri natijasida o'lim	Har bir mln aholiga to'g'ri keladigan qo'rg'oshin ta'siridan o'lim holatlari. Odamlar qo'rg'oshin bilan ifoslangan oziq-ovqat va ichimlik suvini iste'mol qilish orqali qo'rg'oshin ta'siriga uchrashlari mumkin, bu asosan sanoat tarmoqlarida sodir bo'ladi.	IHTT, 1990-2019 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH
Qo'rg'oshin gazining ta'siri tufayli iqtisodiy yo'qotishlar	Qo'rg'oshin ta'sirida o'lim bilan bog'liq ijtimoiy sug'urta xarajatlari YAIMga ekvivalent foiz punktlarida.	IHTT, 1990-2019 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH

Ichimlik suvidan foydalanish	Ushbu ko'rsatkich atrof-muhitda hayot sifatini o'lchashning asosiy tarkibiy qismidir (IHTT, 2017). U boshqa uylar bilan baham ko'rilmaydigan xavfsiz ichimlik suvi manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklarining ulushini (foizini) o'lchaydi. SA BRM-6 monitoringi doirasida xavfsiz ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan uylarning% lari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'adi.	SA, 2010-22 Atrof muhit (stat.uz).
Kanalizatsiya tizimlaridan foydalanish	Umumiy kanalizatsiya tozalash tizimiga ulangan uy xo'jaliklarining foizi. SA ushbu ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlarni yig'adi.	SA, 2010-22 https://w3.unece.org/SDG/en/Indicator?id=52 . https://stat.uz/en/official-statistics/environment .
Sanitariya xizmatlaridan foydalanish	Yaxshilangan sanitariya sharoitlaridan foydalanadigan aholining foizi. Ushbu ko'rsatkich asosiy sanitariya xizmatlaridan (masalan, qo'l yuvish) foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan aholining ulushini o'lchaydi.	Jahon banki, 2000-2020 yillar https://data.worldbank.org/indicator/Sh.STA.BASS.ZS?locations=UZ

Izoh

[1] Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining havo sifati bo'yicha global ko'rsatmalari (HSK) yuqori konsentratsiyadan past konsentratsiyaga bosqichma-bosqich o'tishga yordam beradigan oraliq maqsadlarni o'z ichiga oladi. HSK ma'lumotlariga ko'ra, havodagi QZ_{2,5} konsentratsiyasi darajasi sog'лом darajaga erishish uchun to'rtta oraliq maqsad bilan bog'liq: sog'liq uchun zararli 35 mkg/m³ (1-maqsadli daraja), 25 mkg/m³ (2-maqsadli daraja), 15 mkg/m³ (3-maqsadli daraja) va 10 mkg/m³ (4-maqsadli daraja). JSSTning sog'лом odamlar uchun havodagi QZ_{2,5} konsentratsiyasining yakuniy maqsadli darajasi 5 mkg/m³ ni tashkil qiladi. Qarang: [www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ambient-\(outdoor\)-air-quality-and-health?gclid=CjwKCAjwkeqkBhAnYeiwA5U-uM8k3kA864cfPDB9gNrxaps2JNqdJyYQtwsrvz9432vyvdF_mz-OzRoCKSsQAvD_BwYe](http://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ambient-(outdoor)-air-quality-and-health?gclid=CjwKCAjwkeqkBhAnYeiwA5U-uM8k3kA864cfPDB9gNrxaps2JNqdJyYQtwsrvz9432vyvdF_mz-OzRoCKSsQAvD_BwYe).

[2] QZ_{2,5} xavfi va havo sifati indeksi haqida batafsil ma'lumotni www.health.ny.gov/environmental/indoors/air/prmq_a.htm da qarang.

[3] Havoning ifloslanishi bo'yicha mamlakat reytingini (2018-22) <https://www.iqair.com/us/world-most-polluted-countries> da qarang.

[4] Toshkentdagи havo sifati bo'yicha kunlik hisobotlarni real vaqt rejimida quyidagi manzilda qarang www.iqair.com/ru/uzbekistan/toshkent-shahri/tashkent .

[5] Tashqi havoning ifloslanishi (QZ, ozon, qo'rg'oshin) ta'sirida o'lim va ijtimoiy ta'minot xarajatlarini global taqqoslashni https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH da qarang.

Havolalar

Eurasianet (2022), "Uzbekistan: Tashkent bemoans worsening pollution", 19 October.

OECD (2014), Green Growth Indicators 2014, OECD Publishing, Paris
<http://dx.doi.org/10.1787/9789264202030-en>

OECD (2017), Green Growth Indicators 2017, OECD Publishing, Paris.

IQAIR (2021), World Air Quality Report: Region & City PM2.5 Ranking. <https://www.iqair.com/us/world-most-polluted-countries>

US Embassy in Uzbekistan (2019), "Let's take a breather: The importance of air quality for health, the economy, and the environment", <https://uz.usembassy.gov/lets-take-a-breather-the-importance-of-air-quality-for-health-the-economy-and-the-environment/>.

World Bank (2022), Uzbekistan Public Expenditure Review. Better Value for Money in Human Capital and Water Infrastructure, World Bank, Washington, DC.

6-боб: Iqtisodiy imkoniyatlar va siyosiy choralar

Ushbu bobda O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish investisiyalari, shuningdek, "yashil o'sish" natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy imkoniyatlar va foydalar ko'rib chiqiladi. Ko'rsatkichlar "yashil" texnologiyalar va innovatsiyalar siyosati, atrof-muhitni muhofaza qilish, narxlar, ekologik soliqlar (daromadlar) va moliyaviy transferlar bo'yicha investisiyalar va moliyalashtirish samaradorligini baholashga yordam beradi. Shunday qilib, ular "yashil o'sish" bilan bog'liq iqtisodiy imkoniyatlarni qamrab oladi (IHTT, 2017).


6.1 Texnologiya va innovatsiyalar

"Yashil" texnologiyalar va innovatsiyalar O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Vazifa ixtirolarni ekologik manfaatlarni oshirishga yo'naltirishdan iborat. Taraqqiyotni patent ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan texnologiyalarning umumiy sonidagi atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq texnologiyalar yoki innovatsiyalarning ulushini tahlil qilish orqali baholash mumkin.

Ko'rsatkichlar:

- innovatsiyalarning umumiy hajmidagi ekologik innovatsiyalarning ulushi
- aholi jon boshiga ekologik innovatsiyalar soni.

6.1-diagramma. Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq innovatsiyalar ulushi va aholi jon boshiga ulushi



Manba: IHTT, 2023 yil

Asosiy tendensiya

Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq innovatsiyalarining O'zbekiston innovatsiyalarining umumiy hajmidagi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi 1993-2018 yillar davomida o'zgarib turdi

So'nggi besh yil ichida ekologik texnologiyalar haqida ma'lumotlar mavjud bo'lmasa-da, OECD.stat [1] tomonidan qayd etilgan oldingi tendensiya O'zbekiston 1990-yillarning boshlarida ekologik texnologiyalar va innovatsiyalarni ishlab chiqqanligini ko'rsatadi. IHTT patent ma'lumotlari, ya'ni Jahan patent statistikasi ma'lumotlar bazasidan (PATSTAT) olingan o'zbek ixtirochilari tomonidan ixtiroga patent berish uchun bergan arizalari [2] asosida innovatsiyalar ko'rsatkichini hisoblab chiqadi. O'zbekiston innovatsiyalarining umumiy hajmida ekologik innovatsiyalarining yillik ulushi biror bir yaqqol tendensiyasiz o'zgarib turdi (6.1-diagramma). 2018 yilda O'zbekistondagi innovatsiyalarning 14% dan ortig'i atrof-muhit bilan bog'liq bo'lib, bu global o'rtacha 10% dan yuqori edi. Biroq, aholi jon boshiga ekologik texnologiyalar ko'rsatkichi 0,02 ni tashkil etdi, global o'rtacha ko'rsatkich esa 4,9 ni tashkil etadi [1], bu o'zbekistonliklar orasida ekologik innovatsiyalar past darajada rivojlanganligini va ularning patent talabnomalarining kamligini ko'rsatadi.

2018-yilda atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq jahon texnologiyalarida O'zbekiston ulushi 0,01% ni tashkil etdi [1]. Keyingi IHTT ma'lumotlari mavjud emasligi sababli hisobotda hozirgi tendensiya tavsiflanmagan. Biroq, 2021-yilda atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq innovatsiyalar Jahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan e'lon qilingan barcha patent talabnomalarining 4,8% ni tashkil etdi [3].


6.2 Moliyaviy oqimlar

Moliyaviy oqimlarning davlat va xususiy manbalari "yashil" texnologiyalar va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun muhimdir. Xorijiy va xususiy investisiyalarni jalb etish, shuningdek, "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun texnik yordam ko'rsatish O'zbekiston hukumatining strategik ustuvor vazifasidir. Taraqqiyotni iqtisodiyotdagi moliyaviy oqimlarni, shu jumladan xalqaro rivojlanish yordamini muntazam ravishda kuzatib borish yoki ularga "yashil yorliq" berish orqali o'lhash mumkin.

Ko'rsatkichlar:


- atrof-muhitni muhofaza qilishga davlat xarajatlari
- 13-Barqaror rivojlanish maqsadi (BRM) (iqlim o'zgarishiga qarshi kurash) doirasida davlat xarajatlari
- "yashil" o'sish uchun xalqaro moliyaviy oqim.

6.2-diagramma. Atrof-muhitni muhofaza qilishga davlat xarajatlari



Manba: Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, 2019 yil



6.3-diagramma. BRM-13 (iqlim o'zgarishiga qarshi kurash) doirasida davlat xarajatlari



Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi - O'zbekistonning 2022 yilga mo'ljallangan fuqarolik byudjeti.

6.4-diagramma. XMI va YAO'SA tematik sohalari bo'yicha qarz mablag'lari ulushi, 2023 yil

840 million AQSh dollaridagi ulush




Izoh: FTB = Fransiya taraqqiyot banki; YeTTB = Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki; YAO'SA = "yashil o'sish"ning strategik asoslari; XMI = xalqaro moliya instituti; JB = Jahon banki.

Manba: 2023-yil 3-may kuni donorlar ishchi guruhi yig'ilishida BMTTD taqdimoti.

6.4-diagramma. Rivojlanish bo'yicha sheriklar tomonidan (66 mln AQSH dollaridan ulushi) va YAO'SA tematik sohalari bo'yicha grant mablag'lari ulushi, 2023 yil

66 million AQSh dollarini miqdoridagi grant ulushi



Izoh: FTB = Fransiya taraqqiyot banki; YeTTB = Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki; GYAO'K = global "yashil o'sish" instituti; YAO'SA = yashil o'sishning strategik asoslari; XMI = xalqaro moliya instituti; JB = Jahon banki.

Manba: 2023-yil 3-may kuni donorlar ishchi guruhi yig'ilishida BMTTD taqdimoti.

Asosiy tendensiyalar

Hukumat tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari 2012 yildan 2019 yilgacha to'lgaligicha moliyalashtirilmasdan kelgan

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat xarajatlari odatda oshib borgan, ammo ularning qiymati pastligicha qolmoqda. O'rtacha 2012-19 yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari davlat xarajatlarining atigi 0,06% ni yoki Yalpi ichki mahsulotning (YALM) 0,02% ni tashkil etdi (6.2-diagramma). O'zbekistonda "yashil" xarajatlarning tizimli byudjet belgilanishi o'rnatilmagani sababli bu qiymat kam deya baholanishi mumkin. Shu tariqa, "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun barcha investisiyalarni baholash qiyin.

Hukumat (sobiq Moliya vazirligi, hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi) 2019 yildan boshlab BRMni moliyalashtirish bo'yicha byudjet xarajatlari to'g'risida ma'lumot berishni boshladi. Bu 13-BRM (iqlim o'zgarishiga qarshi choralar) ga erishish uchun ajratilgan byudjetning o'sish tendensiyasidan dalolat beradi (6.3-diagramma). Biroq, investisiyalar qisqardi va 2022 yilda umumiyo hajmning atigi 0,1% ni tashkil etdi, bu asosan COVIDdan keyingi tiklanish siyosati xarajatlarining oshishi bilan bog'liq.

"Yashil o'sish" maqsadlari bo'yicha xalqaro moliyaviy oqimlar katta emas.

O'zbekiston ko'p tomonlama institutlar va Birlashgan Millatlar tashkilotining grantlari va kreditlari orqali "yashil o'sish" uchun kam miqdorda moliyaviy mablag'larni jalb qilmoqda (6.4 va 6.5-diagrammalar). 2023 yilga kelib O'zbekiston "yashil o'sish"ning strategik ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash uchun 840 mln AQSH dollari miqdoridagi kreditlar va xalqaro moliya institutlari (XMI) va rivojlanish sheriklarining 66 mln AQSH dollari miqdoridagi grantlarini safarbar qildi. "Yashil o'sish" yo'lida rivojlanish uchun beriladigan yordamni muntazam monitoring qilishning yo'qligi tendensiyalarni kuzatishga imkon bermaydi. Ushbu hisobotda Birlashgan Millatlar tashkiloti Rivojlanish dasturining ishlamasidan foydalanilgan, ammo ma'lumotlar isbotli emas.

2030 yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tishning milliy strategiyasi doirasida O'zbekiston davlat va xususiy manbalardan "yashil" investisiyalarni jalb qilish uchun maxsus fondlar va "yashil" obligatsiyalar yaratish maqsadida aralash moliyalashtirishni joriy etishni boshladi. Mamlakat, shuningdek, davlat-xususiy hamkorlik doirasida qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqarishga investisiyalarni safarbar qilmoqda. Biroq, u raqbatbardosh uglerod savdosi bozorida ishtiroy etmaydi.


6.3 Narxlar va o'tkazmalar

Ekologik soliq solish ifloslantiruvchi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga va atrof-muhitga tushadigan yuklamani kamaytirishga yordam beradi (IHTT, 2017). Bunday soliqlardan tushgan tushumlar O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash manbai bo'lishi mumkin. Boshqa tomonidan, qazib olinadigan yoqilg'i subsidiyalari ekologik jihatdan samaraliroq iqtisodiyotga o'tishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunga ko'ra, ikkala ko'rsatkich ham kuzatish uchun muhimdir.

Ko'rsatkichlar:


- atrof-muhitning ifloslanishi solig'idan ekologik tushumlar
- ekologik subsidiyalar
- energiya manbalariga narx shakllanishi
- suv narxi.

6.6-diagramma. Ekologik soliqlar va yig'implardan tushumlar




Manba: Xalqaro energetika agentligi (2021), Qazib olinadigan yoqilg'i subsidiyalari ma'lumotlar bazasi.

6.7-diagramma. Energiya subsidiyalari



Manba: Xalqaro energetika agentligi (2021), Qazib olinadigan yoqilg'i subsidiyalari ma'lumotlar bazasi.


6.8-diagramma. Elektr energiya narxi



Izoh: oxirgi foydalanuvchi uchun narx 2015 yildan boshlang'ich sifatida foydalangan holda XQP asosida hisoblanadi.

Manba: IHTT, 2023 yil


6.9-diagramma. Dizel va benzin yoqilg'isi narxi



Izoh: oxirgi foydalanuvchi uchun narx 2015 yildan boshlang'ich sifatida foydalangan holda XQP asosida hisoblanadi.

Manba: IHTT, 2023 yil

6.10-diagramma Benzinning o‘rtacha chakana narxi



Izoh: * narx o‘rtacha turli sifatdagi benzinning uchta markasi (AI-80, AI-92 va AI-95) uchun ko‘rsatilgan. O‘zbekiston tijorat banki tomonidan valyuta kursidan foydalanildi

** 2019-yilda yoqilg‘i narxlarini liberallashtirish siyosatiga muvofiq Toshkent shahri uchun 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan narxlar mavjud.

Manba: "Golden Book" ma‘lumotlaridan foydalangan holda mualliflarning hisob - kitoblari. O‘zbekiston, 2023 yil.

6.1-jadval. Toshkent shahrida sovuq suvga o‘rtacha yillik tarif, so‘mda

Yashash joyi turi	Tarif turi	2019	2020	2021	2022
Xonodon (Markaziy issiq suv ta’motni bilan)	Oyiga bir kishi uchun	10 263	12 697	16 060	17 033
	1 m ³ ga (suv hisoblagichi bilan o‘lchanadi)	1 050	1110	1400	1 400
Mahalliy isitish tizimlariga ega shaxsiy uy	Oyiga bir kishi uchun	9 083	10 826	13 606	12 242
	1 m ³ ga (suv hisoblagichi bilan o‘lchanadi)	380	410	500	500

Manba: Golden Book - O‘zbekiston, 2023 yil.

Asosiy tendensiyalar

Atrof-muhitning ifloslanishi bo‘yicha soliq tushumlarining umumiyligi tushumdagisi ulushi 2015-18 yillar davomida 0,01 % da barqaror bo‘lib qoldi, 2017 yilda u 0,02% gacha ko‘tarilgani bundan mustasno.

Davlat byudjetiga ekologik soliq tushumlarining ulushi barqaror bo‘lib qoldi va 2015-18 yillar uchun umumiyligi byudjetning o‘rtacha 0,01% ni tashkil etdi (6.6-diagramma). Qattiq maishiy chiqindilarni yig‘ish uchun to‘lov 2018 yilda ekologik soliq tushumlarining 57% ni tashkil etdi. Iqtisodiy o‘sish bilan atrof-muhitning ifloslanishi uchun to‘lovlardan olinadigan ekologik daromadlar umuman olganda oshdi. 2018-yilda (ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan oxirgi yil) bu daromadlar 2010-yilga nisbatan deyarli to‘rt baravar ko‘p bo‘lib, taxminan 1,7 mln AQSH dollarini (1 AQSH dollar = 8 069 so‘m) tashkil etdi. 2016 yildan 2017 yilgacha atrof-muhit daromadlari ulushining 56% ga o‘sishi jadal rivojlanayotgan iqtisodiy faoliyatning ta’sirini aks ettiradi. Bu ifoslantiruvchi moddalar chiqindilari va tashlanmalarining ko‘payishiga olib keldi va atrof-muhitni ifoslantirish uchun to‘lovni ikki baravar oshirdi. Ma‘lumotlardan foydalanan imkon yo‘qligi sababli hisobotda so‘nggi tendensiyalarni baholab bo‘lmadi.

Davlat ekologiya qo‘mitasi (hozirgi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi) tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan atrof-muhitni ifoslantirganlik uchun to‘lovlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan tashqari, O‘zbekiston "yashil" soliqdan energiya solig‘i, resurslar solig‘i va transport solig‘i kabi barcha an‘anaviy tushumlarni umumiyligi daromadga kiritmaydi. Bundan tashqari, soliqdan tashqari ekologik litsenziya to‘lovleri va ma‘muriy to‘lovlardan olinadigan daromadlarni o‘lchash qiyin. Bundan tashqari, atrof-muhitni muhofaza qilish daromadlari umumiyligi boshqaruv byudjetiga yo‘naltirilganligi sababli, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri atrof-muhitni muhofaza qilish uchun sarflanadimi yoki yo‘qligini aniqlash qiyin. Shu tariqa, ekologik soliqlar/yig‘imlardan tushgan tushumlarni atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari bilan bog‘lash mumkin emas.

O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot" strategik dasturi va harakatlar rejasi (2022) "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilining to'liq amalga oshirilishini ta'minlaydigan qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni tayyorlashni nazarda tutadi. Rejada, shuningdek, 2023-yil 1-iyulgacha belgilangan ifloslanish solig'i stavkasini oshirish va ifloslantiruvchi moddalar ro'yxatini kengaytirish orqali ifloslanishni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston hali ham qazib olinadigan yoqilg'i energiyasini ishlab chiqarish uchun hamon yuqori subsidiyalarni taqdim etmoqda

2010-2020 yillarda neft yoki neft mahsulotlari, tabiiy gaz va qazib olinadigan yoqilg'idan elektr energiyasini ishlab chiqarishga nisbatan qazib olinadigan yoqilg'i subsidiyalarni asta-sekin kamaytirib bordi (6.7-diagramma). 2020 yilda O'zbekistonning qazib olinadigan yoqilg'idan olinadigan energiya uchun subsidiyalari 2010 yilga nisbatan 60% ga qisqartirildi. Biroq, ular hali ham 3,8 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi, bu YalM ekvivalentining 6,6% ni tashkil etadi. Subsidiyalarning eng katta qisqarishi 2016 yilda kuzatilgan, o'shanda subsidiyalarning umumiy hajmi 2010 yilga nisbatan 75% ga kamaygan. Biroq, 2019 yilda subsidiya miqdori taxminan ikki baravar oshdi va keyin 2020 yilda yana kamaydi. Qazib olinadigan yoqilg'ini qo'llab-quvvatlashning taxminan 75% iste'molchilarni qo'llab-quvvatlashga sarflanadi [1].

O'zbekiston energetika tarmoqi 2030 yilga kelib "yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida kam daromadli aholini himoya qilish uchun qazib olinadigan yoqilg'i subsidiyalardan asta-sekin voz kechishga intilmoqda. Bundan tashqari, hukumat "yashil" energetikaga o'tish maqsadida iste'molchilarning "yashil" energiyaga sarmoyalarni rag'batlantirish uchun "soliq imtiyozlari mexanizmi" ni joriy qildi [4]. Sarmoyalarni rag'batlantirish qayta tiklanadigan energiya va energiya tejaydigan texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirishi kutilmoqda.

Elektr energiyasi va qazib olinadigan yoqilg'i narxi ko'tarilmoqda, ammo u baribir ishlab chiqarish tannarxini aks ettirmaydi.

2012 yildan 2021 yilgacha elektr energiyasi narxi sanoat iste'molchilari uchun ko'tarildi, maishiy iste'molchilar uchun esa pasaydi (6.8-diagramma). Ushbu davrda kilovatt-soat (kVt/soat) narxi tijorat maqsadlarida foydalanish uchun 0,14 dan 0,17 dollargacha ko'tarildi, maishiy foydalanish uchun esa 0,14 dan 0,11 dollargacha biroz pasaydi.

Energiya manbalaridan foydalanish tariflari ishlab chiqarish tannarxini aks ettirmaydi, ammo energiya narxlarini isloh qilish kam daromadli aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati bilan bog'liq holda ko'rib chiqilmoqda (XEA; Jahon banki). Shunga ko'ra, 2019 yildan boshlab iste'molchilarning barcha toifalari uchun yagona tarif emas, balki turli tofadagi iste'molchilar uchun turli xil tarif sxemalari o'rnatildi. Shunday qilib, tijorat iste'molchilari uchun tarif maishiy ehtiyojlarga qaraganda 30-50% yuqori bo'ldi.

Hukumat siyosati 2023 yilga kelib elektr energiyasi tariflariga bosqichma-bosqich o'tishni rejalashtirgan [5]. Siyosat, shuningdek, rentabellik 10 % dan 20% gacha bo'lishi kerakligini nazarda tutadi [5]. Siyosatda qayd etilishicha, 2023 yildan boshlab odamlar elektr energiyasi sarfi uchun undan foydalanadigan kunning vaqtiga qarab to'laydilar.

Xuddi shunday, 2008 yildan 2021 yilgacha dizel yoqilg'isining haqiqiy narxi (2015) ikki baravar oshdi, benzin narxi esa 63% ga oshdi (6.9-diagramma). Ilgari hukumat tomonidan o'rnatilib kelingan benzin va dizel yoqilg'isi narxi 2020 yildan boshlab xalqaro bozor va birja savdolarida belgilanadigan bo'ldi. Benzinning nominal narxi 2009-2016 yillarda ko'tarilgan bo'lsa, 2017 yildan boshlab pasaygan (6.10-diagramma).

Gaz hisoblagichlari bilan jihozlangan turar-joy binolari uchun 2017-19 yillarda tabiiy gazning nominal narxi ham 246 so'm/m² dan 380 so'm/m² gacha ko'tarildi [6].

So'nggi to'rt yil ichida suvdan foydalanish narxi oshdi, ammo baribir subsidiya berish davom etmoqda.

2019-22 yillarda Toshkent shahrida suvdan foydalanish narxi o'rtacha 33% ga oshdi (6.1-jadval). Suv tariflari mintaqaga, turar joy turiga (yakka tartibdagi uy yoki kvartira) va suv hisoblagichlarining mavjudligiga qarab o'zgaradi. Masalan, hududlarda suv narxi Toshkentga nisbatan, xonodonlar uchun esa yakka tartibda qurilgan uylarga nisbatan yuqori. "O'zsuvta'minot" aksiyadorlik jamiyatni suv tariflarini bir necha bor qayta ko'rib chiqadi

[7]. Suv tariflari darajasi va to'lovlarni yig'ish darajasi oshgan bo'lsa-da, ular hali ham subsidiyalangan foydalanish xarajatlarini qoplamaydi (Jahon banki, 2022). Suv narxlari to'g'risidagi avvalgi ma'lumotlar keltirilmagan, chunki hisobotda ma'lumotnomalar (O'zbekistonning Golden Booki) ishlataligan, faqat 2019-22 yillar uchun e'lon qilingan narxlar.

Ta'rif

Atrof-muhitni muhofaza qilishga davlat xarajatlari: atrof-muhitni muhofaza qilishga davlat byudjeti. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida ekologik tadqiqotlar va ishlanmalar.

Atrof-muhit bilan bog'liq innovatsiyalar: atrof-muhitni muhofaza qilish va tiklashni ta'minlash uchun atrof-muhit bilan bog'liq ixtiolar. Bular atrof-muhit bilan bog'liq turli xil texnologiyalar, jumladan, atrof-muhitni boshqarish, suv resurslariga moslashish va iqlim o'zgarishini yumshatish texnologiyalari uchun ixtiolar.

"Yashil" o'sish uchun xalqaro moliyaviy oqimlar: xalqaro kreditlar yoki atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq tadbirlar uchun XMI yoki ko'p tomonlama muassasalardan grantlar.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq soliq tushumlari: hukumat tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq soliqlardan yig'ilgan daromadlar. Soliqlar (i) transport uchun energiya mahsulotlari (benzin va dizel yoqilg'isi); (ii) avtotransport vositalari va transport vositalari (import yoki sotishdan olinadigan bir martalik soliqlar, ro'yxatdan o'tkazish yoki yo'llardan foydalanish bo'yicha davriy soliqlar va boshqa transport soliqlari); (iii) chiqindilarni boshqarish); (iv) ifloslantiruvchi moddar emissiyasi va (v) boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu hisobot faqat ifloslanish va chiqindilarni boshqarish soliqlarini kuzatib boradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq subsidiyalar: energiya tarmog'ida narxlarni past darajada ushlab turishga yordam berish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Masalan, ko'mir, gaz va elektr energiyasi. Bu hukumat qazib olinadigan yoqilg'ilarni qay darajada subsidiyalashini va qayta tiklanadigan energiyani qo'llab-quvvatlash darajasini o'lchaydi.

O'Ichovlilik va izohlash bo'yicha texnik sharhlar

6.2-jadvalda ushbu bobga kiritilgan ko'rsatkichlar uchun o'Ichov, izoh va ma'lumotlar manbai bo'yicha sharhlar mavjud.

6.2-jadval. Iqtisodiy imkoniyatlar va siyosatning javob choralarini to'g'risidagi ma'lumotlarning o'Ichovliligi, izohi va manbai

Ko'rsatkichlar	O'Ichovlilik va o'Ichov birligi	Ma'lumotlar manbai va qamrab olingan yillar
Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq yangiliklar	Barcha mahalliy texnologiyalarda atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ixtirolarning ulushi. Ko'rsatkich butun dunyo bo'ylab patent statistikasi ma'lumotlar bazasidan (PATSTAT) olingan patent ma'lumotlari asosida mamlakat ichida ishlab chiqilgan yangi mahsulotlar va texnologiyalar miqdorini o'lchaydi (IHTT, 2017:153).	IHTT, 1992-2018 yillar https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH
Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq texnologiyalar uchun davlat xarajatlari	Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, "yashil" o'sish uchun davlat xarajatlari (YAO'). Bu hukumat "yashil" tashabbuslarga qancha sarmoya kiritayotganining ko'rsatkichidir.	MEYePCCH, 2012-19 IMV (13-BRM) 2019-22 https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/budget_dlya_grajdan2022.pdf .
"Yashil" o'sish uchun muhim bo'lgan xalqaro moliyaviy oqimlar	AQSH dollaridagi "yashil" o'sish investitsiyalari xalqaro moliya institutlarining kreditlari va grantlarini o'z ichiga oladi.	BMTTD O'zbekistonligi ofisi, 2023 yil Powyer point taqdimoti.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq soliq tushumlari	Jami soliq tushumlari hajmidagi ulushi, % da Ko'satkich atrof-muhitga tashlanadigan ifloslantiruvchi moddalar miqdoriga asoslangan, masalan, energiya yoki transport bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarni o'lchaydi.	MEYePCCH, 2015-18 https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/budget_dlya_grajdan2022.pdf .
Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq subsidiyalar	Subsidiyalarning umumiy hajmidagi ulushi, % da (ko'mir, gaz, elektr energiyasi uchun). Ko'satkich energiya ishlab chiqarish sohalariga berilgan foyda va imtiyozlarni o'lchaydi.	XEA, 2010-20 yillar www.iea.org/reports/uzbekistan-energy-profile . https://iea.blob.core.windows.net/assets/0d00581c-dc3c-466f-b0c8-97d25112a6e0/Uzbekistan2022.pdf
Energiya narxlari / tariflar elektr energiyasi dizel/benzin	Xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha bir litr dizel va benzin uchun haqiqiy narx (2015 yilda AQSH dollarida) O'zbekiston tijorat bankining ayirboshlash kursi bo'yicha benzinning AQSH dollaridagi nominal narxi. KVt/soat elektr energiyasining narxi (2015 yilda AQSH dollarida). Ko'satkich 2015 yilgi narxdan bazaviy narx sifatida foydalaniib, oxirgi iste'molchining elektr energiyasi (maishiy ehtiyojlar va sanoat uchun) narxidagi o'zgarishlarni o'lchaydi. Vaqt o'tishi bilan energiya tariflarining sur'ati energiya manbalarini baholash siyosatidagi islohotlardan dalolat beradi.	IHTT, 2012-21; 2008-21 https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH Oltin sahifalar 2009 - 2022 https://www.goldenpages.uz/benzin-cyena/archiv-benzin/2022/ https://www.goldenpages.uz/benzin-cyena/archiv-benzin/2021/ https://www.goldenpages.uz/benzin-cyena/archiv-benzin/2020/
Suv narxi	Uy-joy turi (xonodon yoki yakka tartibda qurigan uy)ga qarab Toshkent shahridagi suv uchun tariflar, so'mda. Tarif O'zsuvtaminot tomonidan bir kishi uchun oyiga yoki ishlatilgan suvning m^3 uchun (suv hisoblagichlarini o'rnatishda) belgilanadi.	Golden Book-O'zbekiston 2019-22 www.goldenpages.uz/komunal-tarifi/ .

Izoh

[1] IHTTning barcha ma'lumotlarini ko'ring (2023). 2023-yilda "yashil o'sish" ma'lumotlar to'plamlarini https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=GREEN_GROWTH ko'rish mumkin.

[2] Butunjahon patent statistikasi ma'lumotlar bazasiga qarang: EPO - PATSTAT. Butunjahon patent statistikasi ma'lumotlar bazasi

[3] Patentga talabnoma bo'yicha O'zbekistonning mamlakat profiliga qarang:

<https://www.wipo.int/edocs/statistics-country-profile/en/uz.pdf>. Mamlakat bo'yicha statistik sharh O'zbekistonda intellektual mulk (IM) sohasidagi faoliyatni har tomonlama ko'rib chiqadi.

[4] Rag'batlantirish talablari erkin bozor tamoyillari bilan emas, balki O'zbekistonda tarif siyosatini shakllantirish bilan shug'ullanuvchi idora tomonidan belgilanadi,

<https://kun.uz/en/news/2020/05/02/uzbekistan-will-introduce-differential-electricity-tariffs-from-2022>.

[5] Vazirlar Mahkamasining "Elektr energetika tarmog'ida tarif siyosatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, <https://lex.uz/uz/docs/4289882> .

[6] Tabiiy gazdan foydalinish tariflarini www.goldenpages.uz/komunal-tarifi/ da qarang.

[7] Hukumat suv uchun mintaqaviy tariflarni qanday belgilashini <https://uzsuv.uz/en/tariffs-and-criteriada> qarang .

Havolalar

OECD (2017), Green Growth Indicators, 2017, OECD Green Growth Studies, OECD Publishing, Paris,
<https://doi.org/10.1787/9789264268586-en>.

World Bank (2022), Uzbekistan Public Expenditure Review. Better Value for Money in Human Capital and Water Infrastructure, World Bank, Washington, DC.

**II-qism. 2030 yilgacha "yashil" iqtisodiyot bo'yicha milliy strategiya,
dastur va harakatlar rejasini monitoring qilish**

7-bob: O'zbekistonning 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyot strategiyasi monitoringi

Ushbu maxsus bobda O'zbekistonning 2030 yilga kelib "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategik asoslari ko'rib chiqiladi. U "yashil o'sish" strategiyasi, dasturi va harakatlar rejasini amalga oshirishni monitoring qilish uchun hukumat tomonidan tasdiqlangan sakkizta ko'rsatkichga e'tibor qaratadi. Bobda, shuningdek, 2022 yilgacha "yashil" o'sish strategiyasini amalga oshirishdagi yutuqlarni baholash uchun milliy ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

7.1 "Yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun milliy siyosat asoslari

2019-yil 4-oktyabrda O'zbekiston Prezidenti "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorni tasdiqladi (PQ-4477-sonli Prezident qarori) [1] (keyingi o'rnlarda "Yashil iqtisodiyot strategiyasi" deb yuritiladi). Unda to'rtta strategik yo'nalish belgilandi:

- energiya samaradorligini oshirish
- qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish
- iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish, tabiiy boyliklardan foydalanish samaradorligini oshirish
- tabiiy ekotizimlarni saqlash va "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish.

Qaror bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga - ixtisoslashgan ishchi guruhlar orqali "yashil iqtisodiyot" strategiyasini muvofiqlashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish topshirildi.

2022-yil dekabr oyida O'zbekiston ushbu Strategiyaga, shuningdek, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasiga muvofiq [2] 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash milliy dasturini va uni amalga oshirish bo'yicha harakatlar rejasini qabul qildi (PP-436-sonli Prezident qarori) [2].3).

Dasturda (bundan buyon matnda "Yashil o'sish"ning strategik asoslari" yoki YAOSA deb yuritiladi) monitoring tizimini yaratish muhimligi ko'rsatilgan. Bu taraqqiyotni kuzatishi va ma'lumotlarni muntazam ravishda to'plash va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni kuzatish jarayonini institusional qilishni ta'minlashi kerak. Harakatlar rejasini ilovasining 50-53 raqamlari ostidagi tadbirlar bo'limida batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, jumladan:

- idoralararo - muvofiqlashtirishni takomillashtirish
- tarmoqlar strategiyalarini kelishish
- yashil iqtisodiyotga o'tishni modellashtirish va prognoz qilish vositalarini ishlab chiqish
- ma'lumotlar yig'ishni takomillashtirish
- 2024-yil yanvar holatiga ko'ra issiqxona gazlari chiqindilarini monitoring qilish, hisobot berish va tekshirish tizimini yaratish.

Manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashgan holda, hukumat 2030 yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirilishini kuzatib borish uchun 2022 yil dekabr oyida harakatlar rejasini tasdiqlash bosqichida sakkizta ko'rsatkichni tanladi. Ushbu 8 ta ko'rsatkich 2021 yilda taklif qilingan dastlabki 17 ta ko'rsatkich orasidan tanlangan. YAO'SA ko'rsatkichlari 7.1-jadvalda ko'rsatilganidek, 2022, 2024, 2026 va 2028 yillar uchun oraliq maqsadlar bilan 2030 yilgacha energiya samaradorligini, qayta tiklanadigan energiya ulushini, ichimlik suvidan foydalanish ulushini oshirish, o'rmon zaxiralarini kengaytirish va shaharlarni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha ulkan maqsadlar to'plami bilan birga keladi.

7.1-jadval. 2030 yilgacha O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

No	Ko'rsatkichlar	O'Ichov birligi	2022 maqsa dlar	2024 maqsad	2026 maqsa dlar	2028 maqsa dlar	2030 maqsad lar
1	YAIMning sig'imi energiya	Tonna neft ekvivalentida energiya sarfini kamaytirish, % da	5	14	22	27	30
2	Sanoat sohasida energiya sarfi	Jami iste'molidagi energiya ulushi, foizda	26	25	23	21	20
3	Qayta tiklanadigan energiya ulushi	Elektr energiyasi ishlab chiqarishning umumiyligi hajmidagi foiz ulushini	8	9	24.3	29.0	30.5

		oshirish		6.5	8.6	25.0	34.0	40.7
		kVt/s						
4.	Kichik quyosh fotoyelektr stansiyalarini qurish	megavatt		10.0	150.0	400.0	800.0	1 500.0
5.	Yaxshilangan ichimlik suvi manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan aholi	Umumi aholi sonidagi ulushi, foizda		69.7	80.93	87.12	88.5	90.0
6.	O'rmon fondi yerlarida daraxtlar va butalar zaxirasasi	mln m ³		64.2	68.1	77.0	85.5	92.3
7.	"Yashil yer" loyihasi doirasida shaharlardagi yashil maydonlarning ulushi	Shahar aholi punktilarining umumi maydonidagi ulushi, foizda		8.3	12.4	15.8	23.8	30.0
8.	Qayta ishlanadigan qattiq maishiy chiqindilarning ulushi	Hosil bo'lgan qattiq maishiy chiqindilardagi ulushi, foizda		30.0	40.0	50.0	60.0	65.0

Manba: 2022 yil uchun O'zbekiston YAO'SA dasturi va harakatlar rejasи [2].

7.2-jadvalda 2019 yilgi strategiyaning strategik ustuvor yo'nalishlari bilan bir qatorda YAO'SA ko'rsatkichlari keltirilgan. Bu YAO'SA dasturi va harakatlar rejasida "yashil o'sish"ga o'tishning barcha ustuvor yo'nalishlari uchun ko'rsatkichlar mayjud emasligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, rejada tanlangan sakkizta monitoring ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar qanday hisoblanishi yoki yig'ilishi aniq ko'rsatilmagan. Dastlabki qiymatlar ham har bir ko'rsatkich uchun aniq belgilanmagan.

2022-yil uchun maqsadli qiymatlarning birinchi to'plami 2022-yil dekabr oyida dasturning qabul qilinishiga to'g'ri keladi va bu qiymatlar maqsadli yoki bazaviy (boshlang'ich)mi degan savolni tug'diradi. Taklif etilayotgan ko'rsatkichlarni hisoblash uchun "ma'lumotlar manbalarini" ta'rifining yo'qligi, shuningdek, milliy statistikada ushu ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar mavjudligi yoki yo'qligi masalasini ko'taradi. Shunday qilib, kelgusi monitoring tizimi yuqorida fikrlar bilan bog'liq ba'zi xavflarga duch kelishi mumkin, bu esa monitoringni xavf ostiga qo'yadi. Bu qo'shimcha tushuntirish va dastlabki qiymatlarni, hisoblash usullarini, ma'lumotlar manbalarini, ma'lumotlarni yig'adigan mas'ul organlarni, hisobot berish davriyligini va tekshirish usullarini uslubiy muhokamasini talab qiladi.

Ushbu hisobotda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan o'zaro hamkorlikda va mayjud ma'lumotlar asosida ba'zi ko'rsatkichlar uchun 2021 yilga oid ma'lumotlar dastlabki deb (7.2-jadvalda ko'rsatilganidek) olindi. Biroq, ma'lumotlarning barchasi ham to'liq emas. Loyihaning 2023 yil 12 iyuldagи ekspertlar yig'ilishida bir nechta ma'lumotlarning ehtimoliy manbalarini aniqlandi.

7.2-jadval. Milliy "yashil" iqtisodiyotning strategik ustuvor yo'nalishlari, ko'rsatkichlari va o'Ichovliligi

No	"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning strategik ustuvor yo'nalishlari (oltita)	YAO'SA ko'rsatkichlari (sakkizta)	O'Ichov birligi	Ma'lumotlar manbai va tekshirish	Boshlang'ich qiymat - 2021	Maqsad - 2030 yil
1	Tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni ta'minlash	YAIMning energiya sig'imi	Kilogramm neft ekvivalenti (kne) / Yalpi ichki mahsulot birligiga	Statistika agentligi/ Energetika vazirligi	159 Koye/AQSH dollarri	30%ga pasaytirish
2	Iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga chidamliliginini oshirish	Ko'rsatkich yo'q				
3	Iqtisodiyotning sanoat tarmoqida kam uglerodli	Sanoat sohasida energiya sarfi	Umumi energiya hajmidagi ulushi	Energetika vazirligi	24.9%	20% gacha kamayadi

	chiqindilarining past darajasini ta'minlash		% da			
		Qayta tiklanadigan energiya manbalarining umumiyl elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi	mln kilovatt-soat (kVt/soat) va elektr energiyasini ishlab chiqarishning umumiyl hajmidagi ulushi, foizda	Energetika vazirligi	49,5 mln kVt/soat v umumiyl elektr energiyasining 7,1%	31%ga gacha oshirish
		Kichik quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish	MVt-da	Energetika vazirligi	5,6 MVt	1 500 MVt-gacha oshirish
4	Innovatsiyalarni joriy etish va samarali "yashil" investisiyalarni jalb qilish	Ko'satkich yo'q				
5	Barqaror urbanizatsiyani rivojlantirish	Qayta ishlangan qattiq chiqindilarning ulushi; qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishslash darjasni	Hosil bo'lgan maishiy qattiq chiqindilarning umumiyl hajmidagi ulushi, foizda	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi .	26% chiqindilar	65% gacha oshirish
		Shaharlardagi yashil maydonlar	Gektar va umumiyl maydonda ulushi, foizda	O'rmon xo'jaligi agentligi	Ma'lumotlar yo'q	30% gacha oshirish
		O'rmon fondi yerlarida daraxtlar va butalar zaxirasini	mln kub metr (m ³)	O'rmon xo'jaligi agentligi	60,9 mln m ³	92,3 mln m ³ gacha oshirish
6	"Yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida eng ko'p zarar ko'rgan aholini qo'llab-quvvatlash	Xavfsiz ichimlik suvidan foydalanish	Uy xo'jaliklarining ulushi	Statistika agentligi - BRM bo'yicha uy xo'jaliklarining ulushi bo'yicha hisobot	68.3%	90% gacha oshirish


Izoh: koye = neft ekvivalentidagi kilogrammlar; kVt/soat = kilovatt-soat; MVt = megavatt; QMT = qattiq maishiy chiqindilar.

Manba: Mualliflar to'plami [1], [3].

7.2 2030 yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini baholash

Ushbu qism YAO'SAning "yashil" iqtisodiyotga o'tishni monitoring qilish bo'yicha Harakat rejasining sakkizta milliy ko'rsatkichlar bo'yicha taraqqiyotni baholashga harakat qiladi. U imkon qadar 2022-yildagi haqiqiy taraqqiyotni 2021-yildagi bazaviy yil qiymatlariga nisbatan yil uchun belgilangan maqsadga nisbatan baholaydi.


7.1-diagramma. YAIMning energiya sarfini kamaytirish



Izoh: toye = neft ekvivalenti tonnasi


Manba: YAO'SA, 2022; hisobotning 3.8-diagramma va mualliflarning hisob-kitoblari.

7.2-diagramma. Sanoat tarmog'i tomonidan energiya sarfini kamaytirish



Manba: YAO'SA, 2022 yil


7.3-diagramma. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi



Izoh: kVt/soat = kilovatt-soat.


Manba: YAO'SA, 2022; hisobotdagi 3.5-diagramma va mualliflarning hisob-kitoblari.

7.4-diagramma. Quyosh fotoelektr stansiyalari quvvatlarini qurish




Manba: YAO'SA, 2022; Statistika agentligi, Sanoat, 2023 (stat.uz) va mualliflarning hisob-kitoblari.

7.5-diagramma. Aholining ichimlik suvidan foydalanish imkoniyati




Manba: O'zbekiston YAO'SA, 2022; 5.7-diagramma va mualiflarning hisob-kitoblari.

7.6-diagramma O'rmon daraxtlari va butalar zaxirasini ko'paytirish




Manba: YAO'SA 2023 va Energetika vazirligidan boshlang'ich qiymat.

7.7-diagramma. Shaharlardagi yashil maydonlarning ulushi



Manba: YAO'SA, 2022 yil

7.8-diagramma. Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash



Izoh: QCH = qattiq chiqindilar

Manba: O'zbekiston YAO'SA, 2022; BRMga erishish bo'yicha SA hisoboti, mualliflarning hisob-kitobları.

2022 yil uchun asosiy tendensiylar

Iqtisodiyotning energiya sig'imi kamaydi

2022-yilda O'zbekiston milliy YAO'SAda belgilangan energiya sig'imini 5% ga kamaytirish bo'yicha birinchi maqsadga erishdi va uni 12,6% ga kamaytirdi (7.1-diagramma). Pasayish shuni ko'rsatadi, mamlakat 2022 yilgi maqsaddan energiya sarfini kamaytirishda allaqachon 0,139 tonna neft ekvivalenti (tne)/AQSH dollari va 0,151 tne/AQSH dollari hisobida yaxshi natijalarga erishmoqda. Ushbu tendensiya mamlakat uchun 2030 yilgi maqsadiga erishishda yaxshi boshlang'ich nuqtadir.

Sanoat sohasida energiya sarfini kamaytirishni o'lchash oson bo'lmadi.

Taraqqiyotni kuzatish uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan "tarmoqlar bo'yicha energiya iste'moli" ning dastlabki ma'nosи va ta'rifida aniqlik yo'q. Statistika agentligi (SA) "tarmoqlar bo'yicha sof elektr energiyasini iste'mol qilish" to'g'risidagi ma'lumotlarga ega (qarang: stat.uz Sanoat), 2021 yilda bu ko'rsatkich 24,9% ni tashkil etgan; agar sanoat va qurilish tomonidan iste'molning umumiyligi ta'minot hajmidagi ulushlarini qo'shsak, bu 27% (20 249 mln kVt*soat) ni tashkil etadi. Biroq, "elektr energiyasi iste'moli "energiya iste'moli" degani emas. Shunday qilib, bu ikki atamani farqlash juda muhimdir. Bundan tashqari, tarmoqlar bo'yicha elektr energiyasidan foydalanish bo'yicha SA ma'lumotlarining yig'indisi umumiyligi qiymatni bermaydi, shuning uchun ular tekshirishni talab qiladi.

Ushbu hisobotda 3.7-diagrammada ishlatalilgan O'zbekiston bo'yicha IHTT ma'lumotlar to'plami tarmoqlar bo'yicha birlamchi energiya sarfini ko'rsatadi. Biroq, u 2021 yilgi ma'lumotlarga ega emas. Shu bilan birga, mavjud ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, 2020 yilga kelib sanoat tomonidan birlamchi energiya iste'molining ulushi allaqachon 20,5% ni tashkil etgan.

Ishlab chiqarilgan elektr energiyasining umumiyligi hajmidagi QTEM ulushi maqsadli ko'rsatkichga nisbatan oshdi.

O'zbekiston elektr energiyasi ishlab chiqarishning umumiyligi hajmidagi qayta tiklanadigan manbalar ulushining 8% ni 2022 yilda belgilangan maqsadli ko'rsatkichdan oshirib yubordi. Qayta tiklanadigan elektr energiyasining ulushi 2022 yilda 8,8% ni va amalda 445 mln kVt soatni tashkil etdi. 2030-yildagi maqsadli ko'rsatkich 2022-

yildagi ko'rsatkichdan to'rt baravar ko'p; shunday qilib, O'zbekiston kelgusi yillarda qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqaradigan elektr stansiyalarini o'rnatishda jadaal harakat qilishhi kerak.

Quyosh energiyasi quvvati maqsadli ko'rsatkichga nisbatan oshdi

7.4-diagrammada O'zbekiston 2022-yil uchun quyosh quvvati maqsadli ko'rsatkichlarini besh baravar oshirgani ko'rsatilgan. Hisoblash oson kechmadi. Bu yerda ko'rsatkich quyosh energiyasining umumiyligi o'rnatilgan quvvati (MVt) sifatida talqin etiladi. Garchi SA (stat.uz, Sanoat) issiqlik va gidroyelektr stansiyalarining yillik quvvatini e'lon qilsada, u qiymati ahamiyasiz bo'lgan quyosh elektr stansiyalarining quvvatini hisobga olmaydi. Biroq, SA har yili ishlab chiqariladigan quyosh energiyasi (mln kVt/soat) ma'lumotlarini taqdim etadi. Shunga ko'ra, 2021-yilda (bazaviy yil) O'zbekiston 49 mln kVt/soat quyosh energiyasi ishlab chiqargan. Shunday qilib, 2021 yilda quyosh elektr stansiyalarining yillik quvvati 5,59 MVtni tashkil etgan (49 mln kVt/soat / 24 soat x 365 soat deb hisoblanadi).

SA ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda quyosh energiyasining haqiqiy hajmi 445,7 mln kVt/soatgacha oshdi; demak, megavatt (MVt) issiqlik quvvatiga aylantirilganda, quvvat 51 mVtgacha oshdi (447,700,000 / 24 x 365 deb hisoblandi).

O'zbekiston 2030 yilda 1500 MVt quvvatga ega bo'lgan ulkan maqsadiga erishish uchun quyosh elektr stansiyalarini tezroq o'rnatishi kerak.

Xavfsiz ichimlik suvidan foydalanish ko'rsatkichi maqsadli deb belgilangandan oshdi

2022 yilda ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan aholining ulushi 71,6% ni tashkil etdi, bu o'sha yil uchun belgilangan ko'rsatkichdan (69,7%) biroz yuqori. Ushbu hisobotda xavfsiz ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan xonadonlarning ulushi (umumiyligi aholining ulushi emas) o'chanadi, bu haqda SA ham dalolat beradi. Shunday qilib, ko'rsatkichni aniqlashda aniqlik muhimdir.

O'rmon zaxiralari hajmini baholash oson bo'lmadi.

2022 yil uchun ma'lumotlar mavjud emas. Harakatlar rejasiga o'rmon zaxiralari 2021 yildagi 60,9 mln m³ dan (Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida) 2030 yilda 92,3 mln m³ gacha oshirishga qaratilgan. IHTTning O'zbekiston o'rmon zaxiralari to'g'risidagi so'nggi ma'lumotlari 2015 yilga to'g'ri keladi, hisobotlar esa har besh yillik davr uchun tuziladi. Monitoring tizimi ko'rsatkichni kuzatish uchun ma'lumotlar manbasini (O'rmon xo'jaligi agentligi) aniq ko'rsatishi, shuningdek, ko'rsatkichning joriy vaziyatga muvofiq ta'rifini taqdim etishi kerak.

Shaharlardagi yashil maydon ulushining o'zgarish tendensiyasini o'chanash qiyin

Harakatlar rejasiga 2021 yil uchun shahar yoki shahar zonalari uchun asosiy qiymatni belgilab bermaydi. O'zbekiston 2030 yilga kelib shaharlardagi yashil hududlar ulushini umumiyligi maydonning 30% gacha oshirishni rejalashtirmoqda. O'rmon bilan bog'liq ma'lumotlar manbai O'rmon xo'jaligi agentligidir, shuning uchun shahar yashil zonalari to'g'risidagi qaydlar aniq belgilanishi kerak.

Qattiq chiqindilarini qayta ishslash sohasidagi yutuqlarni baholash oson kechmadi.

Ushbu hisobot tuzilgan paytda 2022 yil uchun ma'lumotlar mavjud emas edi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha Harakatlar rejasiga qattiq chiqindilarini qayta ishslash quvvatini 2021 yildagi 26 % dan 2030 yilga kelib 65% gacha oshirishni nazarda tutadi. 2021-yilda qayta ishlangan qattiq chiqindilarning haqiqiy hajmi 1,6 mln tonnani tashkil etdi. SA 12-BRM monitoringi doirasida qattiq chiqindilarini qayta ishslash ma'lumotlarini yig'adi.

Izoh

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarorini (Prezident qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son) <https://lex.uz/ru/docs/4539506> da qarang.

[2] Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasini <https://lex.uz/ru/docs/5841077> da qarang.

[3] YAO'SA dasturi va harakatlar rejasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarorida <https://lex.uz/docs/6303233> da qarang.